

O'QUV-USLUBIY NASHR

**N.ORIPOVA, M.MUHAMMADIYEVA,
Yu.YARMANOVA**

**TARBIYAVIY ISHLARNI
TASHKIL ETISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

Texnik muharrir: **M. Raxmatov**
Musahhih: **M. Primova**

Terishga 18.06.2019 yilda berildi. Bosishga 24.06.2019-yilda
ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32. Nashr bosma tabog'i 6,17.
№ 36– buyurtma. 150 nusxada. Erkin narxda.

Qarshi davlat universiteti
kichik bosmaxonasida bosildi.

Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**N.ORIPOVA, M.MUHAMMADIYEVA,
Yu.YARMANOVA**

**TARBIYAVIY ISHLARNI
TASHKIL ETISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

Qarshi-2019

Ushbu uslubiy qo'llanmada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish nazariyasi va amaliyoti hamda ularni amalga oshirishning yo'llari va usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, qo'llanmada tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning turlari va shakllari tahlil qilingan hamda ulardan namunalar keltirilgan.

Uslubiy qo'llanma maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachi - pedagoglari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

R.Shodiyev - Qarshi davlat universiteti
p.f.d.

Taqrizchilar:

Sh. Nurullayeva - Qarshi davlat universiteti
Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim fakulteti dekani,
p.f.n., dots.

Sh. Hamroyev - Qashqadaryo viloyati
XTXQMOH markazi
Maktabgacha boshlang'ich va
maxsus ta'lim kafedrası
katta o'qituvchisi, p.f.n.

Ushbu uslubiy qo'llanma Qarshi davlat universiteti
O'quv-uslubiy kengashining 2019-yil 10-maydagi yig'ilishi
qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

M U N D A R I J A:

Muqaddima..... 3

TARBIYAVIY ISHLARNING MAZMUNI VA ULARNI

TASHKIL ETISH METODIKASI

- 1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan
tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari 5
- 1.2. Tarbiyaviy ishlarda oila va jamoatchilik hamkorligi..... 7
- 1.3. Tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan manbalar va vositalar... 17

TARBIYABIIY ISHLARNING TURLARI VA

YO'NALISHLARI

- 2.1. Ertaliklar – tarbiyaviy ishlarining asosiy shakli sifatida..... 36
- 2.2. Ko'rik tanlovlarni tashkil etish metodikasi..... 40
- 2.3. Ekskursiyalar – ommaviy tarbiyaviy ishlarning turi sifatida... 42

III.TARBIYABIIY ISHLAR SSENARIYLARIDAN

NAMUNALAR

- 3.1. Ertaliklardan namunalar 45
- Xotima..... 93
- Foydalanilgan adabiyotlar..... 94

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – T., 2017.-104 b
2. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga Davlat dasturini o’rganish bo’yicha “Ilmiy-uslubiy risola”. – T.: “Ma’naviyat”, 2017 yil, 335-bet.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997, 63 b.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.
5. Ahmedov B. Ajdodlar ug’iti. – T.: Cho’lpon, 1991.- 113 b.
6. Boytullayev R. Ajdodlar merosini o’rganib. // Muloqot. -2004. -№5. -B.29-30.
7. Baratov Sh. Bola shaxsini o’rganish usullari. –T.: O’qituvchi, 1995.-52 b.
8. Donishmandlar odob-axloq to’g’risida. – T.: O’qituvchi, 1986. - 134 b.
9. Javliyev T. An’analari hayot sabog’i. – T.: O’qituvchi, 1992. - 87 b.
10. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – T.: O’qituvchi, 1994.- 256 b.
11. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. - 133 b.
12. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymalar, allomalar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1999. - 395 b.
13. Mahmudov S. O’zbek udumlari. – T.: Fan, 1993.- 218 b.
14. Ming bir hadis. – T.: Movorounnahr, 1998.- 144 b.
15. Mirtursunov Z. O’zbek xalq pedagogikasi. – T.: Fan, 1973. - 210 b.
16. Munavvarov A. Pedagogika. Pedagogika Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. – T.: O’qituvchi, 1996.- 200 b.
17. Pedagogika kursidan xrestomatiya (Tuzuvchi muallif O.Xasanboyeva). – T.: O’qituvchi, 1993.- 206 b.
18. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O’qituvchi, 1995.- 207 b.
19. Temur va Ulug’bek. – T.: Qomuslar bosh redaksiyasi, 1996.- 216 b.
20. Yo’ldosheva R. O’zbek xalq o’yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. – T.: O’qituvchi, 1994.- 119 b.
21. O’zbek tilining izohli lug’ati. Davlat ilmiy nashriyoti, –T.: 2008. 4- jild,13-bet.
22. O’zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. – T.: O’qituvchi, 1999. - 478 b.
23. O’zbek xalq maqollari. – T.: Badiiy adabiyot, 1965. - 168 b.
24. O’zbek xalq maqollari. – T.: To’plam. K.Imomov va boshqalar tahriri ostida. Adabiyot va san’at, 1989. - 510 b.

MUQADDIMA

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, yosh avlod ongiga Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg’ularini chuqur singdirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga ko’tarish - biz barpo etayotgan jamiyatning asosiy vazifasidir. Ayniqsa, xalqaro maydonda mafkuraviy, g’oyaviy va axborot xurujlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoitda bu vazifalarni tekis va silliq amalga oshirish o’ta qiyin va murakkab masaladir. Buning uchun mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o’sib kelayotgan yosh avlod o’z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o’tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog’lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo’lmasa, turli ma’naviy tahdidlarga bardosh berishi mushkuldur. Ayniqsa, bu borada xalqimiz, xususan yoshlarimizdan yakdillik, birdamlik, shijoat, mustaqil fikrlash, sog’lom e’tiqod, bilim – xullas ma’naviy va jismoniy yetuklik talab etiladi. Zero, har tomonlama yetuk yoshlarga turli ma’naviy, mafkuraviy xurujlardan o’zlarini himoya qila oladilar, hayotga ongli munosabatda bo’lib, mamlakatimiz mustaqilligi, osoyishtaligiga xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan tajavuzlarga qarshi tura oladilar.

Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning quyidagi fikrlari alohida ahamiyatga molik: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹.

Darhaqiqat, mana shunday avlodni tarbiyalash, ular ma’naviyatini yuksaltirish uchun mamlakatimizda tahsinga loyiq ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xalqimiz, davlatimiz va hukumati-mizning ham diqqat e’tibori yoshlarga qaratilgandir.

Xususan, keyingi uch yil moboynda maktabgacha ta’lim sohasiga berilayotgan e’tibor mazmunida ham aynan shu masala

¹ 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga Davlat dasturini o’rganish bo’yicha “Ilmiy-uslubiy risola” T. “Ma’naviyat”, 2017 yil, 335-bet.

mujassam. Zero, barkamol shaxsni tarbiyalashning ilk tamal toshi maktabgacha ta'lim jarayonida qo'yiladi.

Demak, har jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan dolzarb vazifa ekan, avvalo bunday shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun tarbiyalanayotgan murg'ak qalb egalarilarining ongiga ona Vatan, Vatanni sevmoq, Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi tushunchalarni chuqurroq singdirish lozimki, shu ruhda tarbiya topayotgan yosh avlod kelajakda mamlakat, xalq manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan yetuk insonlar bo'lib yetadilar. Bunday shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishda tarbiyaviy ishlarning alohida o'rni bor.

Tarbiyaviy ishlarning bosh vazifasi bolalar hayotini zavq-shavqqa to'ldirish bilan birga, mamlakatimiz rivoji uchun barkamol insonlarni tarbiyalab berishdan iborat. Maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlardan kutiladigan natija bolalarning mashug'otlarda olgan tushuncha va bilimlarini yanada mustahkamlash, amalda qo'llay bilishga o'rgatish, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini boyitish, kasblar haqida tushuncha berish bilan birga xalqimizning boy merosi, an'analari bilan yaqindan tanishtirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, tarbiyaviy tadbirlarni MTMlarda ko'proq tashkil etilishi taqozo etiladi. Chunki, maktabgacha yoshidagi bolalarda tevarak-atrofni o'rganishga ehtiyoj, qiziquvchanlik kuchli bo'ladi. Ana shu ulardagi etiyoj tarbiyaviy tadbirlar orqali qondirib boriladi. Shu bilan birga bu yoshdagi bolalar o'yinqaroq, taqlidchan bo'ladilar, ular tadbirlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Shu bois tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darjasida tashkil etish maqsadga muvofiq.

X O T I M A

Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning negizini xalqimiz farovonligini oshirish va ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini yuksak darajaga ko'tarish masalasi tashkil etadi. Shu bois bugungi kunda yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratib berilmoqda.

Mana shunday yoshlarni tarbiyalashda darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ahamiyati kattadir. Biz yuqorida bayon etganimizdek darsdan va sinfdan tashqari ishlar bola kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. Shuningdek, ularni ijtimoiy faoliyatga yo'llash vositasidir. Bola bevosita sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda ishtirok etar ekan, avvalo uning dunyoqarashi kengayadi, ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amalda sinab ko'radi. Vatanga e'tiqod, ona zaminni asrash, avlodlar merosiga nisbatan hurmat, ota-onaga e'tiqod ruhida tarbiyalanib boradi. Bola o'z-o'zini ana shu sinfdan tashqari ishlar jarayonida kashf qiladi, o'rtoqlari bilan yaqindan munosabatda bo'ladi, jamoada o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi. Bolalardagi yashirin qobiliyat, iste'dod tarbiyaviy tadbirlar jarayonida namoyon bo'ladi.

kelgan.

1-boshlovchi(o'g'il bola)

Hurmatli tadbir qatnashchilari, muhtaram ota-onalar va aziz o'ztozlar shu bilan bugungi ertaligimiz o'z nihoyasiga etdi. Xayr sog' va salomat bo'lingizlar.

Ertalikda ishtirok etishgan barcha obrazlar, birin-ketin kechani tark etishadi. Ertalikda ishtirok etgan bolalar o'qituvchi va ota-onalar tomonidan taqdirlanadilar.

Bu ertalik orqali o'quvchilar mehnat tarbiyasi va unga oid maqollar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, mehnatkashlikni qadrlashni o'rganadilar. Qolaversa, o'quvchilar ota-onalari va ustoz-murabbiylari mehnatlarini ezozlashni, vatanimiz kelajagi, xalqimiz farovonligi uchun mehnatlari yordamida (ilm-hunar o'rganish orqali) o'z hissalarini qo'shish ko'nikmasi shaklanadi hamda o'quvchilar mehnatsevarlik xalqimiz e'zozlab kelayotgan qadriyatlaridan biri ekanligini anglab yetadilar.

TARBIYAVIY ISHLARNING MAZMUNI VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning maqsadi va vazifalari

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti va davlatimiz xalqimiz uchun farovon turmush tarzini yaratish, tinch va obod vatanni barpo etish, uni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun barcha sohalarida islohotlar olib bormoqda. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda inson oliy qadriyat sifatida tan olingan, barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar uning baxt-saodati uchun xizmat qilishi lozim, deb belgilab qo'yilgan.

Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ularning buguni hamda kelajagi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Negaki bugungi yoshlarimiz kelgusida vatanimiz bunyodkorlari, himoyachilari va baxtu-iqbolidir.

Biroq shuni ham unutmasligimiz lozimki, bugungi yoshlarimiz o'z nomi bilan atalayotgan globallashtirish jarayonlari, axborotlar asrida yashamoqdalar. Ba'zan oila, maktab va mahalladan ko'ra ularning tarbiyasida ana shu shiddatkor zamonning o'ziga xos ko'rinishlari ustunlik qilmoqda. Ya'ni yoshlarimiz ayniqsa, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalari bir qator salbiy omillar ta'siriga berilib ketib, inson hayoti uchun qimmatli bo'lgan, vaqt deb atalmish bebaho boylikni qadrlashni unutib qo'ymoqdalar. Kunlab, soatlab televizor qarshisida yoki internet kafelarda o'tirish, bema'ni o'yinlarni o'ynash kabi holatlar ayniqsa, yosh bolalar tarbiyasiga, ularning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zero, biz barpo etayotgan jamiyat uchun har tomonlama yetuk: jismoniy sog'lom va ma'naviyati yuksak yoshlar zarur. Shu bois, mamlakatimiz prezidentidi Sh.Mirziyoyev ham deyarli barcha nutqlarida yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondoshish va ularni yot g'oyalardan muhofaza qilish lozimligini ta'kidlab kelmoqdalar.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasiga befarqlik, beparvolik ularning turli tajavvuzkor kuchlar ta'siriga berilib ketishiga ham sabab

bo'lmogda. O'z-o'zidan bu kabi holatlar mamlakat rivoji va xalqimiz tinchligiga rahna solib, natijada yoshlarimizning turli jinoyatlar sodir qilishiga, ta'lim olishdan uzilishiga, eng muhimi kelajak faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi.

Demak, yoshlarimiz tarbiyasi hamon global muammo sifatida tilga olinayotgan ekan, biz bu muammoning eng maqbul yechimi sifatida ular tarbiyaviy faoliyatini maqadli tashkil etish kerak deb hisobladik. Negaki yoshlarni tarbiyaviy faoliyatga undash va uni maqsad asosida tashkil etish biz yuqorida ta'kidlayotgan muammolarni bartaraf etishning yagona yo'li hamdir. Bizga ma'lumki, pedagogik jarayonda yosh avlodga tarbiya berish ularga ta'lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Biroq, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari mavjudki, u nafaqat ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini kafolatlaydi, balki yosh avlodni kelajak faoliyatga, ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. To'plagan tajribalarga ko'ra shuni ta'kidlash joizki, bolalarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat mashg'ulotlar bilan qondirib bo'lmaydi. Shu sababli tarbiyaviy mashg'ulotlarda bolalar faoliyatini barcha qirralarini qamrab olishi lozim.

Har bir bola bilan individual ishlash, uning psixologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish tarbiyaviy faoliyatning asosiy negizini tashkil etadi. Bolalarning g'oyaviy-siyosiy, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularda tevarak-atrof va jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, vatanga e'tiqod va sadoqat, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini e'zozlash hissinini tarkib toptirish – tarbiyaviy ishlarning mazmunini tashkil etmoq'i lozim.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda bugungi kun tarbiyaviy ishlarining **maqsadi**: umuminsoniy qadriyatlar va xalqimizning tarbiyaga oid ijtimoiy bilim va tajribalari, boy an'analari asoslangan holda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy yetuk, jismonan sog'lom avlod qilib tarbiyalash shakl va vositalarini ishlab chiqib, amalga joriy etishdan iborat.

Tarbiyaviy ishlarning asosiy **vazifasi** esa: yosh avlodning aqliy va axloqiy, estetik tafakkurini o'stirish orqali ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlash; o'z shaxsiy hayotini maqsadli va mazmunli tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish; milliy va umuminsoniy qadriyatlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik,

7. Mehnat yerda qolmas, Oltin – yo'lda.

8. Mehnat tovoq to'ldirar, Minnat tog' kuydirar.

2-boshlovchi (qiz bola)

Dono bobo nabiralaringiz ham o'zingizdek bilimdon va dono o'quvchilar ekan. Biz ular yordamida mehnatsevarlik tarbiyasiga oid maqollar haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

1-boshlovchi (o'g'il bola)

Endi mehnat tarbiyasiga oid maqollar yuzasidan bahru bayt o'tkazamiz va davraga ikki nafar o'quvchini taklif etamiz (Sahnaga tadbirda ishtirok etayotgan o'quvchilardan hoxlovchilar maqol aytishga chiqariladi va ular navbat bilan mehnat tarbiyasiga oid maqollarni aytishadi).

1-o'quvchi: Mehnat qilsang, yasharsan, Katta-katta osharsan.

2-o'quvchi: Mehnat bilan yer ko'karar, duo bilan – el.

1-o'quvchi: Mehnat qilsang, qaram bo'lmaysan.

2-o'quvchi: Mehnatli non-shakar, mehnatsiz non-zahar.

1-o'quvchi: Mehnatning nomi shirin, yalqovning joni shirin.

2-o'quvchi: Mehnat-rohatning poydevori.

1-o'quvchi: Mehnat tovoq to'ldirar, minnat tog' kuydirar.

2-o'quvchi: Mehnat bilan topganing, qandu asal totganing (maqollarni aytish shu tarzda davom etadi va g'olib o'quvchi rag'batlantiriladi).

Dono bobo: Aziz bolajonlar hurmatli o'quvchilar xalqimiz mehnatkash insonlarni, mehnatni qanchalik ulug'laganliklarini yuqorida aytilgan maqollardan ham bilib oldingizlar degan umiddaman. Siz bu maqollarni nafaqat bilishingiz balki o'z hayotingiz davomida ularga amal qilishingiz lozim. Men sizning haqiqiy mehnatsevar ilmga chanqoq o'quvchilar ekanliklaringizga aminman va sizlar muhtaram yurtboshimiz ishonganlaridek buyuk kelajak qura olishingizga ishonchim komil. Buning uchun tinimsiz izlanishingiz, ilm-hunar o'rganishingiz va haqiqiy mehnatkash bo'lishingiz darkor.

2-boshlovchi (qiz bola)

Dono bobo siz juda to'g'ri gapirdingiz. Zero, xalqimiz mehnatni farovonlik kaliti deb bilgan va bunga hamisha amal qilib

1-boshlovchi (o'g'il bola)

Hurmatli dono bobo hozir zukko nabiralaringizni "Nilufar guli" metodi orqali mehnatsevarlik tarbiyasiga oid maqollarni bilish darajalarini sinab ko'rsak.

Dono bobo – ziyrak va o'zimdek dono nabiralarim bilimiga ishonaman. Sizlar bunga nima deysizlar.

Bolalar birgalikda: Biz tayyormiz.

Ular sahnaga chiqib mehnatsevarlik tarbiyasiga oid maqollarni "nilufar guli" gul bargchalariga yozib chiqishadi.



Javoblar:

1. Mehnat-mehnatning tagi rohat.
2. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik.
3. Mehnat qilib topganing qandur asal totganing.
4. Mehnat baxt keltirar.
5. Mehnat bilan yer ko'karar, duo bilan - el.
6. Mehnat va o'qish og'a-ini.

tashabbuskorlik, tinchlikni qadrlash kabi hislatlarini yuksaltirishdan iborat.

Tarbiyaviy ishlarga quyiladigan asosiy **talab** quyidagilarda ifodalanadi:

- tarbiyalanuvchi shaxsining o'ziga xosligi (yoshi, individual psixoloik xususiyatlari, qiziqish va qadriyatlarini)ni hisobga olgan holda tarbiya jarayonini tashkil etish;

- yosh avlodning istak va iqtidor imkoniyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun tarbiyaviy ishlarga yo'naltirish;

- shaxslararo munosabat: bola va tarbiyachi, bola-bola, tarbiyachi va ota-ona o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlarini tarkib toptirishdan iborat.

1.2. Tarbiyaviy ishlarda oila va jamoatchilik hamkorligi

Barkamol shaxsning tamol toshi dastlab oiladan boshlanib, bog'cha, maktab va boshqa ta'lim muassasalari, shuningdek, mahallada davom ettiriladi. Ushbu muassasalar hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdiridagina, yosh avlodda barkamollik sifatleri muntazam shakllanib boradi. Barkamollik sifatlerini egallagan yoshlarga esa mamlakatimizni yanada rivojlantiradi va yuksaltiradi. Darhaqiqat, oila – tarbiya o'chog'i, jamiyat negizidir. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga shu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatga hamohang bo'lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini

yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini: ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq, muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Oila, mahalla va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada mahalla va jamiyatning maqsadi va muammolari o'z aksini topadi. Zero, mahalla va oila jamiyatning asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham oilani jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila va mahalla bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarini namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Bugungi kunda bola tarbiyasining dolzarb pedagogik muammoligini hayotning o'zi isbotlamoqda. Chunki bugun farzandlarimiz global muammolar qurshovi, ayniqsa, axborotlar ta'sirida yashamoqda. Bolaga ota-ona, maktab, mahalladan ko'ra uni o'rab turgan o'zga olam ko'proq ta'sir etishi, o'z domiga tortishi tabiiy. Bunday holatning oldini olishning eng muhim va samarali yo'li pedagogik tizimni ishga solish, ya'ni ota-ona va MTM hamkorligini tashkil etishdir. Hamkorlik – bu bola tarbiyasida ota-ona va muassasa o'rtasida yagona hamda mutlaq to'g'ri pedagogik ta'sir yo'lini ishlab chiqish demakdir.

Oila va bog'cha hamkorligidagi tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati shundan iboratki, kichik bolalik paytida ota-ona va bog'chadan egallangan bilimlar uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning maktabgacha ta'lim muassasalari va mahalla bilan hamkorligini oqilona tashkil etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammolaridandir.

O'zbek milliy urf-odatiga ko'ra ko'pincha bolalarning tabiatiga baho berilganda uning ota-onasidagi mavjud hislatlariga nisbat berib baholanadi.

Demak, har bir ota-ona o'z farzandiga yaxshi hislatlarni bolaligidan singdirgani ma'quldir. Shunday ekan, oilaning katta

4-bola, ya'ni o'quvchi (dono boboning ziyrak nabirasi)

Yaxshilik va yomonlikni madh etuvchi

5-bola, ya'ni o'quvchi (dono boboning ziyrak nabirasi)

Do'stlik-birodarlikni madh etuvchi

Boshlovchilar:

Rahmat sizga dono bobo

Berdingiz bizga yaxshi saboq.

1- boshlovchi (o'g'il bola)

Dono bobo sizning zukko nabiralaringiz o'zingizdek bilimdon va dono o'quvchilar ekan.

Dono bobo


Bolalarim peshonangiz,

Hamisha porloq bo'lsin

2- boshlovchi (qiz bola)

Dono bobo agar siz rozi bo'lsangiz nabiralaringiz quyidagi maqollarga rebis tuzishsa. Dono bobo nabiralari 3 kishidan bo'lishib maqollarga rebis tuzishadi. Dono bobo rebis tuzishda yordam berib turadi.

Quyidagicha rebuslar tuzish mumkin:



Do'st so'zini tashlama,
Tashlab boshing qashlama.



Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer

(Rebus natijalari tekshiriladi va birinchi bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi. **Musiqiy tanaffuz**)

Dono bobo: - bolalar endi siz meni tinglang, men sizlarga maqollar haqida gapirib bermoqchiman. (dono bobo maqollar va uning mazmun, mohiyati haqida qisqacha hikoya qilib beradi)

kimlar tashrif buyurmoqda.

2- boshlovchi (qiz bola) – axir bu kishi dono bobo va uning zukko nabiralari-ku.

1-boshlovchi (o'g'il bola) - ha, topdingiz bu kishi dono bobo va uning zukko nabiralari bo'ladilar. Keling ularni qarshi olaylik (Bolalar dono bobo va uning zukko nabiralari qarshi olishadi).

Davruga dono bobo va uning zukko nabiralari tashrif buyuradi.

Dono bobo: Salom bolalar.

*Sizni ko'rsam bolalarim,
Bag'rimdagi lolarim
Zavqim bo'lar bir jahon
O'ynab kulgin sho'h –shodon.*

Boshlovchilar: Xush kelibsiz Dono bobo,

*Davramizga marhabo,
Siz va zukko bolalarga
Mehnat qilmoq haqida
Savol bermoqchi edik.
Bergan javobingizdan
Ma'no termoqchi edik.*

Dono bobo

*Marhamat bo'lsa savol,
Javob bergaymiz bimalol.*

1- boshlovchi (o'g'il bola)

Maqol so'zin ma'nosi nedur?

Dono bobo

Maqol atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq erur.

2- Boshlovchi (qiz bola)

Qanaqa maqollarimiz bordir?

1-bola, ya'ni o'quvchi (dono boboning zukko nabirasi)

Maqollar o'z mazmun mohiyatiga bir necha turlarga bo'linadi.



2-bola, ya'ni o'quvchi (dono boboning zukko nabirasi)

Vatanparvarlikni madh etuvchi

3-bola, ya'ni o'quvchi (dono boboning ziyrak nabirasi)

Mehnatsevarlikni madh etuvchi

yoshdagi a'zolarining bolaga qo'yadigan talablarni hamda ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarda so'z bilan ishning bir bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Oilada bunday birlikni bo'lmasligi bola hulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi muhim.



Quyidagi rasmlarda oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda mehr-oqibatli, o'zaro hurmat-ehtiroimli bo'lish kabi insoniy munosabatlar haqidagi tushunchalar berilgan. Masalan: 1-rasmda ota-onalar yuz-qo'llarini yuvishgan vaqtda farzandlarning ularga xizmat ko'rsatishlari, ya'ni qo'llariga suv quyishlari, yoki yuz-qo'llarini yuvishganda ularga oppoq sochiqlar tutishlari oilaning muqaddas odob normalari ekanligi o'quvchilarga tushuntirilmoqda.

2-rasmda esa, oiladagi opa-singillar munosabatida opa-singillar bir-birlari bilan ahil-inoq, mehr-oqibatli, shirin muomalali bo'lishlari, har qanday holatda ham bir-birlariga yordam qo'llarini cho'zish odobi haqidagi tushunchalar ifodalangan.

3-rasmda katta yoshdagi bolalar, ayniqsa opalar o'z ukalari yoki singillari to'g'risida qayg'urishlari, ularni doimo nazorat qilib borishlari, yuz-qo'llari va yoki kiyimlari iflos bo'lganda yuvinishlarida ko'maklashishlari lozimligi uqtiriladi.

4-rasmda oilada opalar o'z ukalari yoki singillariga qarab borishlari, ularni nazorat qilib borishlari, ayniqsa, yura olmaydigan ukalarini o'ynatish, qiziqarli hikoyalar, she'rlar aytib berishlari haqida tushunchalar berilgan. Shu bilan oilada farzandlarni bir-biriga o'zaro munosabatlar jarayonida mehribon bo'lish, bir-birlariga nisbatan izzat-ikrom ko'rsatish haqida tushunchalar berib o'tilgan.

Tarbiya ishi avvalo oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, jamoatchilik tomonidan muntazam, maqsadga muvofiq olib boriladi.

Demak, tarbiyaning muhim xususiyatlaridan biri uning tizimli olib borilishi hamda muayyan maqsadga qaratilganligidir. Bola tarbiyasida bu prinsipning buzilishi bolaning xulq-atvoriga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bola tarbiyasida ota-onani obro'sini hal qiluvchi omillardan biridir. Bola tarbiyasi maktabgacha ta'lim muassasi, oila, jamoatchilik va mahallaning hamkorligida olib borilsa, tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Shu bois keyingi paytlarda mahalla-ko'ylarda, turar joylarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ko'lami ancha kengaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasining ota-onalar bilan birgalikda olib boradigan faoliyatida ota-onalar majlislari, jamoa, yakka tartibda suhbatlar, ota-onalar konferensiyalari, ota-onalar uchun ularning bolalar bilan olib boriladigan to'garak va mehnat ishlarga jalb qilish kabi ishning jamoa va alohida shakllari tarkib topgan. Mahoratli tarbiyachi oila bilan oilb boriladigan ishni mazmuni shakl va metodlarini to'g'ri tanlashi uchun o'z tarbiyalanuvchilarining oilasini juda yaxshi bilishi kerak.

Oilani va oilada bolalarni o'rganish metodlari xilma-xildir. Kuzatish, suhbat, bolalarning ijodiy ishlarini o'rganish, ota-onalar qiziqishlarini aniqlash, oila a'zolarini mehnat faoliyati bilan tanishish. Ota-ona va pedagog hamkorligida tashkil etiladigan tarbiyaviy ishlarning muhim jihatlaridan biri - bu bola tarbiyasida yagona talabni yo'lga qo'yishdir. Qachonki, har ikkala tarafning maqsadi va ishonchi bir xil bo'lsagina bola tarbiyasida kutilgan samaradorlikka

*Olam aro tanxodur
Ulardek ilm olmoq
Mehnatla qadr topmoq
Bizlar uchun zo'r baxtdir.*

2- boshlovchi (qiz bola)

*Aql-u bilim, shijoat odamlarniki
Vijdon bilan nomlanur har halol mehnat,
Mehnat ila topilgay hurmat, ehtirom
Mehnat o' sha hurmatni saqlamoq demak.*

1-boshlovchi: Assalomu alaykum aziz tadbirimiz qatnashchilari. Ushbu kun, ya'ni "Mehnat-mehnatning tagi rohat" tadbirimizga xush kelibsiz. Mehnatkash insonlarning mehnat mahsullaridan ko'zingiz quvonadi. Darhaqiqat, bu mehnat mahsuli yurtimiz tinchligi-yu, obodligi va farovonligiga qo'shilgan munosib hissadir. Buning uchun vatanimiz mehnatkash insonlariga tashakkur aytamiz.

2-boshlovchi: Darhaqiqat, mehnat insonni ulug'laydi, unga go'zallik, zavq, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Ota-bobolarimizning bizga meros sifatiga qoldirgan milliy qadriyatlarmizdan biri-bu mehnatdir. Chunki, milliyligimizga xos bolgan barcha ezgu fazilatlarimiz bu mehnat va hunarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, ulug' bobolarimizdan Ibn Sino ham "Inson hunarni puhta o'rganishi lozim. Chunki, hunar unga kelajakda ro'zg'or tebranishi uchun asqotadi. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi" deb bejis aytmaganlar.

1- boshlovchi: Albatta, har kimning zari bo'lmasada, hunari bo'lsin, chunki, hunarsiz kishi quruq savlatga o'xshaydi. Quruq savlat qotib qolgan suratdir. Sen suratga boq, u odamga o'xshasada joni bo'lmaydi yoki, daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, kiyik shoxlaridan nima farqi bor? Qalam garchi cho'p bo'lsa-da, ilmu-hunarni oshkor etgani uchun azizdir. Zero, xalqimiz ham mehnatkash insonlarni ardoqlab, ular mehnatiga ulkan baho bergan. Mehnat qilishning afzalliklari haqida ko'plab qo'shiqlar, maqollar yaratgan. Hozir biz mehnatga oid bir qo'shiqni tinglasakda keyin tadbirimizni navbatdagi qismiga o'tsak.

Musiqiy tanaffus raqs

1-boshlovchi (o'g'il bola) - qarang Ruhshona davramizga

“Mehnat –mehnatning tagi rohat” ertaligi

(Ertalik mehnatga oid xalq maqollarini o‘rgatish orqali bolalarda mehnatsevarlik tarbiyasini shakllantirishga bag‘ishlab o‘tkaziladi).

Ertalikning maqsadi:

1. Mehnat tarbiyasiga oid maqollarni o‘rganish orqali bolalarda hamjihatlik, inoqlik, mehnatsevarlik, menhatkash insonlarni qadrlash tuyg‘ularini o‘stirish. Halol mehnat qilishga undash.

2. Maqollarni yodlab qissadan hissa chiqarishga, uni do‘stlari bilan mushohada etishga o‘rgatish.

Tadbir o‘tkaziladigan joy bayramona bezatilgan. Sahnada chiroyli burchak tashkil etilib, unda maqol kotoblari, tarqatma materiallar, maqollarga oid ishlangan rasmlar joylashtirilgan (Tadbir boshlanishidan oldin 8-minutlik mehnatkash insonlar va ular mehnatining mahsuli haqidagi qissqa video film namoyish etiladi. Bu zaldagilarda ko‘tarinkilik kayfiyatini hosil qiladi. Fil‘m tugagach sahnaga boshlovchilar kirib kelishadi).

Davruga ikkita boshlovchi chiqib keladi.

1- boshlovchi (o‘g‘il bola)

*Ona vatanni sevmog
Ajdodlardan merosdir.
Uning ravnaqi uchun,
Hunar-ilm o‘rganmog.
Bizlar uchun olmosdir.*

2- boshlovchi (qiz bola)

*Nomi dunyoga mashhur
Bobolarim bor mening
Yasaviy, Bobur, Sino
Navoiy, Amur Temur
Sharafim-shonim mening.*

1- boshlovchi (o‘g‘il bola)

Ularning har hikmati

erishish mumkin. Bu ishlar shubhasiz, tarbiyachining faoliyati bilan izohlanadi. Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etishda pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay ishlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda bola tarbiyasida мактабгача таълим va oila hamkorligini tashkil etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, bunda ota-onalar, tarbiyachilar va mahallaning roli va o‘rni beqiyosdir. Avvalo, hamkorlik natijasida bolalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlari: vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamdardlik, do‘stlik, mehribonlik, saxiylik, kattalarga hurmat kabilar shakllantirib borilishi hamda ularning aqliy, estetik, jismoniy tarbiyalarini birgalikda olib borilishi davr talabidir. Zero, biz tarbiyalayotgan bolalar axborot asri qurshovida yashamoqdalar. Tevarak-atrofdan tarqatilayotgan axborotlar bolalar ongiga ba‘zan ijobiy, ba‘zan esa salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ota-onalar, pedagoglardan yoki mahalladan bu masalaga jiddiy yondoshishlari talab etiladi. Bunda ular quyidagilarga etibor qaratishlari lozim:

1. Jismoniy tarbiyaga alohida e‘tibor berishlari (ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to‘g‘ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni va uyquni to‘g‘ri tashkil etish va boshqalar);

2. Ma‘naviy tarbiyani bola ongiga singdirishlari (Bunda bolaga Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari, davlatimizning ramziy belgilari haqida ma‘lumot berish, mustaqillik, Vatan haqidagi she‘r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an‘analarimizni o‘rgatish kerak bo‘ladi);

3. Bolada axloqiy sifatlarni muntazam shakllantirishi (Bunda kattalarning o‘rnak va namuna ko‘rsata olishi muhim o‘rin tutadi. Zero, axloq kishilarning yurish-turishi, xatti-harakati va muomalasida namoyon bo‘ladi, deb bejizga aytilmagan. Odob-axloqli farzand ota-onaning yuzi hisoblanadi);

4. Yosh avlodga estetik tarbiya berishni yo‘lga qo‘yish (Bunda oila davrasida qo‘shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirish jihatlardir);

5. Bolada mehnatga ishtiyoq va iqtisodiy tarbiyani shakllantirish; (Bunda ota-onalar bolaga boshqalarning mehnatini qadrlash, mehnat natijalarini ehtiyot qilish, mehnatning insonga farovon hayot olib kelishini tushuntirishlari lozim bo'ladi. Mehnat bolalarda saranjom-sarishtalik, maqsad sari intilish, sabr-bardosh kabi xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Mehnat tarbiyasi ko'pincha iqtisodiy tarbiya bilan birgalikda olib boriladi. Bozor iqtisodiyoti davrida bolalarga iqtisodiy tarbiya berish muhim ish hisoblanadi. Chunki, oiladagi tejamkorlik, iqtisod uning farovonligi omilidir). Umuman olganda oilada bolalarga tarbiya berishda ota-onaning bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, oilaviy ishlarga javob-garligi, axloqi, muomalasi, asosiy o'rinni egallaydi.

Ota-onalar bilan yakka tartibda suhbat o'tkazganda bolalarning turmush va sharoitlarinigina aniqlab qolmasdan, balki shu bilan birga ular xatti-harakatidagi aniq voqea hodisalar ularning o'quv mehnat faoliyatidagi kundalik xulq-atvoridagi kamchiliklarga barham berishlari, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlarini aniqlab olish mumkin. Ota-onalar o'quvchilarning uyda bajaradigan o'quv mashg'ulotlarini yanada ratsional tarzda tashkil etish to'g'risida, ularni mehnatga o'rgatish va shu kabilar to'g'risida maslahatlar olishlari mumkin.

Tarbiyachi ota-onani tartib-intizomni buzgan, yoki yomon xulqqa ega bo'la boshlagan vaqtidagina chiqarib qolmaslik kerak. Bolaning kun tartibini va bo'sh vaqtini tashkil etish haqida uni qandaydir ijtimoiy foydali ishga jalb etish haqida bolaning biron bir sohadagi qobiliyatini taraqqiy ettirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish haqida uning ota-onasi bilan kelishib olishi lozim bo'lib qoladi.

Agar bog'chaga intizomsiz bolalarning ota-onalari chaqirilgan bo'lsa, ular bilan bolaga qo'yiladigan yagona talablar hamda unga ta'sir etishning pedagogik jihatdan o'zini oqlagan chora tadbirlar haqida kelishib olmoq darkor.

Bunda hamisha shu narsani esda tutmoq kerakki ota-onalar pand-nasihat va jerkib urishishga emas, balki pedagogik maslahat, o'rtoqlarcha yordamga muhtoj bo'ladilar. Bolalar to'g'risida qilinadigan do'q-po'pisa va uning ustidan dod qilishdan ko'ra bola shaxsiga ta'sir etishning oqilona choralari to'g'risida og'ir

*O'zbekim kamolini,
Bilsin har el, har iqlim.*

3-bola: *O'zbek tili elimning,
Uriv turgan yuragi.
O'zbek tili yurtimning,
Tarixi, kelajagi.*

4- bola: *Buyuk Maxmud Qoshg'ariy,
Ardoqlagan buyuk til.
Shoir bobom Alisher,
Xamsa bitgan suyuk til.*

“Raqs”

Ustoz: bizga barcha fanlar nimalardir demoqchi bo'lib shaylanib turibdilar. Qani, marhamat boshlang'ich ta'lim fanlari, navbat sizlarga.

O'qish: *Ichim to'la ajoyib,
Qissa-yu- she'r, hikoya.
Qiziqib o'qisangiz,
Shudir menga kifoya.*

Ona tili: *Do'stlar o'zbek tiliga,
Oshdi mehr va hurmat.
O'z tilin ulug'lagan,
Elimizga ko'p rahmat.*

Matematika: *Bolalar hamma ishda,
Kerakdir hisob-kitob.
Meni o'rganmasangiz,
Bo'lar xolingiz xarob.*

Atrofimizdagi olam: *Atrofga boqing,
Qanday go'zal bu olam.
Shunday emas- mi?
Bu savollarga mening,
Sahifalarim orqali javob olasiz.*

“Ustozlar” qo'shig'i.
Tadbir yakunlanadi.

O'qituvchim- muallim.

2-bola: *Har kishining ustoz,
Hayot ko'rki, parvozi,
El-ulus mamnun rozi,
Onaday bebahoyim.
O'qituvchi- muallim.*

3-bola: *Harfi imlo tanitgan,
Orom nima unutgan.
Bilimin menga tutgan,
Qalbimdagi bayotim-
Oqituvchi- muallim.*

4-bola: *Qalbi daryo, keng ummon,
Boladay sof, pok iymon.
Har so'zi quvvat, darmon,
Tili bolim, tilloim,
O'qituvchi- muallim.*

5-bola:
*Uyg'onar dilda havas,
Parvonadir har nafas.
Zahmatlarga basma – bas.
Ko'ksi qalqon, qanotim —
O'qituvchi – muallim.
Oilamiz sizga ta'zim.*

Quvonchbek: o'qituvchimiz bizga qaysi fandan dars o'tmasinlar, doimo sof ona tilida, boshqa so'zlarni aralashtirmay gapirish kerakligini o'rgatadilar.

Mohinur: mana yaqinda, aniqrog'i 21-oktabrda biz so'zlayotgan ona tilimizga davlat maqomi berilgan kunni nishonlaymiz.

1-bola: *Yasha ey o'zbek tilim,
Yaqin sening bayraming.
Olam bo'ylab tashlagan,
Odamlaring – qadaming.*

2-bola: *O'zbekiston nomini,
Dunyoga tanit tilim.*

vazminlik bilan ishchanlik vaziyatidagi suhbat katta foyda beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakl va usullaridan bir nechalarini keltiramiz:

a) Ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash.

Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta aramiyatga ega va kutilgan samaralarni beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. Buning natijasida tarbiyachi bilan oila o'rtasida do'stlik munosabatlari, o'zaro hurmat va ishonch tezrok o'rnatiladi.

b) Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil kilinadigan ishlar. (Bularga ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari kiradi).

v) Ko'rsatmali ishlar

Ishning bu turi: ko'rgazmalar, fotomontajlar, bolalarning ishlarini namoyish qilish, oilaviy tarbiyaning turli masalalari bo'yicha materiallar solingan papka va shu kabilarni qamrab oladi. Bu shakllar boshqacha ram bo'lishi mumkin. Bu ishga ijodiy yondoshish maktab direktori, o'qituvchilari hamda ota-onalarning o'zlariga ham bog'likdir.

g) Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan tanishish.

d) Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bola yashab turgan oilani o'rganish, ota-onalar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo'llaridan biridir. O'qituvchi oilaga tekshiruvchi sifatida emas, balki maslahatchi, do'st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi.

Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsadi bola tarbiyalanayotgan sharoitni ko'rish va zarur bo'lsa ota-onalarga yordam ko'rsatishdir.

Bolalarni uylariga borib ko'rish ishi ma'lum maqsad asosida tashkil etilgan oilaviy tarbiya bilan tanishish, bolaning oiladagi xulqining o'ziga xos xususiyatlarining aniqlashdan iborat bo'lib qolmay, balki ota-onalar bilan yakkama-yakka va jamoa tarzida tashkil etiladigan ishlarning mazmunini, ularning turli shakllarini belgilab olishga ram imkoniyat tug'diradi. Oilani borib ko'rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odob bilan o'tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlarini ochib berilsa, ota-onalarning tarbiyachiga bo'lgan hurmati va ishonchi ortadi.

Tarbiyachi suhbat davomida shaxsiy kuzatishlar, ota-onalarga, oilaning boshqa a'zolariga va bolaga berilgan savollar orqali bolani, uning oilasini yanada yaxshiroq bilib olishga imkon beruvchi o'ziga zarur ma'lumotlarni oladi. Bularning hammasi bola tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tashrif buyurish haqida ota-onalarni oldindan ogohlantirish kerak, bunda oila uchun, o'zi uchun qulay kun tanlanadi. Suhbat vaqtida hech qanday yozuv olib bormaslik, ota-onalar bilan keskin, nasihatgo'ylik ohangida gaplashmaslik zarur, faqat maslahat, tilak, taklif kiritish mumkin. Oilani borib kurishda olingan taassurotlarni kalendar rejaning "Tarbiyaviy ishlarni hisobga olish" ustuniga yozib qo'yish lozim. Oilani borib ko'rishning maqsadi va mazmuni tarbiyachining rejasida, hisobida va maxsus kundaligida aks ettirilishi kerak. Oilani yiliga kamida ikki marta borib ko'rish tavsiya etiladi.

Ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar

Oila bilan shaxsan ishlashning eng keng tarqalgan usuli sifatida qo'llanadigan suhbat – bolalarni ertalab qabul qilish va jo'natish vaqtida o'tkazilishi mumkin. Ular pedagog va ota-onalarning bir-biri bilan yaqinroq tanishishlariga, bolaning muvaffaqiyatlari, kamchiliklari, xulqi va sog'ligidagi o'zgarishlarni kuzatishga yordam beradi.

Pedagog tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o'tkazadigan suhbat qisqa muddatli bo'ladi, lekin bolaning kayfiyatini aniqlab olishda, uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Ustoz: barakalla sizning bilimlaringizdan ko'nglim to'ldi.

Raqs

Ruhshona: hozir davramizga zukko va bilimdon o'rtoqlarimizni taklif etamiz. (Davraga 4-nafar bola kirib kelishadi)

Aslbek: sizlar ustozlarimizga xos fazilatlarini mana bu gul bandlariga joylashtirib chiqasizlar.



(Bolalar yozgan javoblarini izohlaydilar. To'g'ri javob bergan bolalar rag'batlantiriladi).

Ruhshona: aziz ustozlar va tadbir qatnashuvchilari 4^a sinf bolalari "Ustozlar" haqida she'rlar yod olganlar, hozir ularni davraga taklif etsak.

1-bola: *Mehrin sochib yo'limga,
Qalam tutib qo'limga,
Oshno etgan bilimga,
Otaday mehribonim*

Aslbek: topolmading ey o‘rtoq,

Ustozdan yo‘q ulug‘roq.

Ruxshona: hurmatli ustoz!

Bugun sizlarni barcha bolalaringiz muborak bayram bilan chin yurakdan tabriklaymiz.

Ustoz: Boshim osmonga yetdi, bolalarim, bu chiroyli maqtovlaringiz, ta’riflaringiz uchun ming rahmat. Biz o‘qituvchilar sermashaqqat muallimlik kasbini tanlaganimizdan sira ham afsuslanmaymiz. Aksincha, o‘qib bir hunarning boshini tutsangiz yoki kursining egasi bo‘lsangiz, bizdan baxtli odam yo‘q, chunki, sizlarning yutug‘ingiz bizning yutug‘imiz, xursandchiligimiz. Bordi-yu, biroz charchagan bo‘lsak ham, shu bir og‘iz minnatdorchilik so‘zingiz bizga shodlik, orom bag‘ishlaydi. Sizlar qanchalik bilimli va zukko bo‘lsangiz biz shunchalik xursand bo‘lamiz.

Ruxshona: rahmat sizga qalb so‘zlaringiz uchun aziz ustoz.

Aslbek: endi sinfdoshimiz Mansur tomonidan uztozlarga bag‘ishlangan she’rni eshitsak:

Mansur:

Ne-ne buyuk zotlar ko‘rdi bu dunyo,

Moziy sahifasi to‘la limmo-lim.

Shuuri, onglarga bergan nur ziyo,

Ilm debochasi- boshlang‘ich ta‘lim.

Har inson yuragi, har ishning boshi,

Murg‘ak vujudlarning porloq quyoshi.

Kelajagi uchun sen tamal toshi,

Munavvar yo‘lboshi- boshlang‘ich ta‘lim.

Ustoz: aziz bolalarim endi “tezkor savol” metodi orqali bilimlaringizni bir sinab ko‘rsam, qarshi emasmisiz?

Bolalar baravariga:

Ustoz bersangiz savol,

Bizga kelmas hech malol

Bundan bo‘lib ko‘p xursand

Javob bergaymiz darhol.

Ustoz: o‘qituvchi so‘ziga ma’nodosh so‘zni toping?

1-bola: muallim, ustoz, domla, mudarris.

Ustoz: “Uztoz otangday ulug‘” maqolini izohlang?

2-bola maqolni izohlaydi.

Guruhiy maslahatlar, majlislar

Guruhiy maslahatlar ota-onalarga mavjud ma’lumotlarni ma’lum qilishnigina nazarda tutmaydi, balki oilaviy tarbiya tajriba almashinuvini ham kuzda tutadi. Pedagog maslahatga oldindan tayyorlanadi: zarur adabiyotni va ko‘rgazmali materialni tanlaydi, maslahat o‘tkaziladigan aniq vaqt haqida e’lon qiladi, u haqida ota-onalarni ogohlantiradi. Bunday maslahatlar onda-sonda va muntazam o‘tkazilishi mumkin. Ota-onalar jamoasi bilan ishlash guruhiy va umumiy majlislar shaklida o‘tkaziladi.

Guruhiy va umumiy majlislar ota-onalar o‘z vazifalarini chukurroq tushunishlariga va bolalar tarbiyasida oilaning ahamiyatini anglashlarida, pedagogik bilimlarni egallashlariga qaratilgan.

Ota-onalarning guruhiy majlislari zaruriyatga qarab yil choragida bir marta o‘tkaziladi. Bunday majlislardan maqsad ota-onalarni aniq pedagogik masalalar bilan tanishtirishdir. Ularda mazkur sinfdagi o‘quvchilarni tarbiyalash masalalari muhokama qilinadi, sinf ishi bilan bog‘lik tashkiliy masalalar ko‘rib chiqiladi, ota-onalarning bayramda ishtirok etishlari haqida, ekskursiyalar haqida gaplashiladi. Majlisning mavzusini belgilashda va unga tayyorgarlik ko‘rishda ota-onalari taklif etilayotgan bolalarning yoshini hisobga olish zarur. Majlis vaqtida hammaning oldida ba’zi bolalar va ularning ota-onalari haqida salbiy fikr bildirish kerak emas, bunday gaplarni ota-ona bilan begona tinglovchilar ishtirokisiz do‘stona shaklda olib borish o‘rinli. Agar ota-onalar tarbiyachiga bolalari haqida gapirib berishni iltimos qilib murojaat qilishsa, u holda tarbiyachi, avval bolaning ijobiy tomonlari haqida keyin esa xulqining xavotir olish mumkin bo‘ladigan va salbiy tomonlari haqida ma’lum qilishi lozim.

Majlis oxirida keyingi majlis mavzusini e’lon qilish, ba’zi ota-onalar bilan bolalarni oilada tarbiyalash tajribasini o‘rtoqlashish va boshqa maslahatlarni berish kerak.

Ota-onalar bilan maktab xodimlarining birgalikdagi faoliyati.

Ota-onalar bilan maktab xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktab muassasasi ishlayotgan sharoitlarga bog‘likdir. Ota-onalar maktab maydonini ko‘kalamzorlashtirish, uchastkadagi jihozlarni va qo‘llanmalarni ta’minlash,

sogʻlomlashtirish ishlarini oʻtkazishda yordam koʻrsatishlari mumkin.

Tarbiyachining bolani yaxshi tarbiyalashdagi oila bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik koʻp, aniq va muntazam habar berib turishlariga bogʻliq. Ana shu maqsadda tarbiyachi-pedagog oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

1. Tarbiyalanuvchining mehnatiga tavsifnoma: kunlik faoliyatidagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklari, ularning sabablari.

2. Tarbiyalanuvchining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar: bolaning jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligini, jamoat topshiriqlari va vazifalarining bor-yoʻqligi, sababi, ularga oʻzining munosabati.

3. Bolaning oʻz oʻrtoqlari, oʻqituvchilari munosabatda vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarning doirasi.

4. Bolaning ayrim xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish.

5. Oilaga bola, tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham oʻz navbatida farzandi haqida oʻz mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda maʼlum axborotlar berib borishi mumkin:

1. Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

2. Belgilangan kun tartibning bola tomonidan bajarilishi.

3. Oʻquvchining bogʻcha haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, guruh hayotidagi turli voqealar munosabati.

4. Ota-onaning ayrim tarbiyachilardan, yoʻriqchilardan, MTM rahbarlari haqida iltimoslari va takliflari.

MTM bilan oila oʻrtasidagi bu xildagi oʻzaro xabarlashuvlar tarbiyalanuvchi shaxsini toʻla oʻrganishga, taʼlim va tarbiyada shu bola uchun eng maqbul tarbiya taʼsir vositasini topishga yordam beradi.

Shuni taʼkidlab oʻtish kerakki, ota-onalarning ishi ijtimoiy xarakterga ega va ixtiyoriylikka asoslangan boʻlishi kerak. Shuning uchun bu faoliyatga jalb qilishning asosiy yoʻli iltimos, ishontirish, maslahat berishdan iborat boʻlishi kerak. hamkorlik ishlarida

Boshlovchilar: Aziz bolalar shu bilan bugungi tadbirimiz oʻz nihoyasiga etdi. Sizlarni yana bir bor ona tabiatni asrashga, uning goʻzalligidan bahramand boʻlishga chorlab qolamiz (Musiqqa sadolari ostida tadbir yakunlanadi).

1-oktabr “ Oʻqituvchilar va murabbiylar kuni”ga bagʻishlangan tadbir ssenariysi

Maqsad:

a) bolalarda ustoz va murabbiylarga boʻlgan mehr-muhabbat tuygʻularini yanada yuksaltirish, ular mehnatini qadrlashga oʻrgatish.

b) tadbir vositasida bolalarda zukkolik, bilimdonlik, mustaqil fikrlash, toʻgʻri mushohada yuritish koʻnikmasini rivojlantirish.

d) bolalarda kasbiy tushunchalarni shakllantirish.

(Sahna bayramona ruhda bezatigan. Sahna atrofiga uztozlarni ulugʻlovchi hikmatli soʻzlar, maqollar va sheʼrlardan parchalar ilingan. Sahnaga koʻzlari chaqnab, yuzlarida tabassum balqib turgan, ikki boshlovchi chiqib kelishadi).

Ruxshona: Assalomu alaykum, mehri daryo ustozlar, koʻzining nuri, qalbining qoʻri bilan bizga saboq berayotgan oqila muallimlar!

Aslbek: Assalomu alaykum, tadbirimizga fayz kiritib turgan mehmonlar!

Ikkala boshlovchi birgalikda: Bugun biz siz ustozlar qarshisida taʼzimdamiz.

Ruxshona:

Haq yoʻlida kim sanga bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak oson emas.

Oning haqin ming ganj ila.

Aslbek: Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy qalamidan toʻkilgan bu soʻzlar ustozlar uchun haqqoniy bahodir.

Musiqiy tanaffus:

Ruxshona: Kuchlilardan ziyoda

Nima tayanch dunyoda?

Barcha bolalar:

Ustun yoki minora...

*Osti sariq, usti sariq,
Shirin, totli, ichi tariq.
(Anjir)*

*Sariqligi- zar, dedim,
Totib, asal- qand dedim.
(O'rik)*

*Kichkina dikcha,
Ichi to'la mixcha.
(Anor)*

*Xo'ppa semiz,
Bir tuki yoq.
(Tarvuz)*

*Qat-qat to'nli,
Qarich bo'yli.
(Karam)*

1-boshlovchi: Endi navbatni hakamlarga beramiz va siz to'plagan ballar bilan tanishamiz (Hakamlar ballarni hisoblab, e'lon qilishadi).

1-boshlovchi:

*Mevalarni
Shakar etding,
Yaproqlarni
Sim zar etding,
Oltin kuzim.
Oltin kuz.*

2-boshlovchi:

*To'kin-sochin
Dala-yu bog'...
Dehqonlarning
Dimogi chog'
Saxiy kuzim
Oltin kuz.*

tarbiyachidan ota-onalar bilan ishlash borasida bilim, tajriba, ijodkorlik, muomala madaniyati, keng duyoqarash sohibi bo'lishlik talab etiladi. Hamkorlik ishlarida mahallaning o'rni va ahamiyati ham katta bo'lib, bugungi kunda tarbiyachi va boshqa bolalardan mahalla bilan aloqani mustahkamlash, uning bola tarbiyasi borasida olib borayotgan ishlarida ko'maklashish, uning tarbiyaviy xususiyatlaridan samarali foydalana bilish lozim. Bola tarbiyasiga oid ota-onalarga pedagogik bilim berishning eng samarali shakllari- bu davra suhbatlari, turli uchrashuvlar, ekskursiyalar, kitoblar namoyishi, treninglar, oilaga tashrif kabilar bo'lib, bulardan muntazam foydalanib borish faqat va faqat bola tarbiyasida yagona fikr bo'lishiga olib keladi.

1.3. Tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan manbalar va vositalar

Tarbiyaviy tadbirlar samaradorligini oshirish va ularni qiziqarli tashkil etish uchun xalq pedagogikasi namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Xalq pedagogikasi manbalari obrazlar va turli-tuman voqealarga boy bo'lib, u tinglovchini har tomonlama o'ziga jalb etadi. Ularda nafaqat kattalar, balki, bolalar hayoti, ularning qizish va intilishlari, orzu-hayollari ifodalanadi. Shu bilan birga xalq pedagogikasi namunalarida milliylik va milliy tarbiya an'analari ufurib turganligi bois uni barcha barobar tinglaydi. Xalqning muqaddas an'analari va urf-odatlar, rasm-rusumlari ham xalq pedagogikasida tasvirlanadi.

Bizga ma'lumki, milliy-ma'naviy qadriyatlar negizini an'analari, ya'ni urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu sayillar tashkil etadi. Ana shulardan biri an'analardir. An'analari jamiyatda asrlar bo'yi joriy etilib, mustahkamlanib kelganligi uchun yashovchan xarakterga egadir.

An'ana – bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongi, hayotida o'z o'rnini topgan, ajdodlardan-avlodlarga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalaridir. Demak, an'analari xalq ma'naviy hayotining turli sohalarini o'z ichiga oladi. Har bir millatning o'ziga xos muayyan an'analari borki, ular xalqning turmushini bezab turadi va milliy qadr-qimmatini yuksaltiradi, hayotining mazmunli o'tishiga

sababchi bo'ladi. Har bir yangi avlod o'tmish avlodlarning tajribasini an'analar orqali qabul qiladi.

An'analar urf-odatlardan ko'ra kengroq tushunchadir. An'analar millat ijtimoiy hayotining hamma tomonlariga xos bo'lib, ular ijtimoiy ongning hamma shakllarida bor, ularni faqat axloq, huquq, dinda emas, balki siyosat, fan, san'atda, ba'zan kishilarning ish faoliyatlarida ham uchratish mumkin.

Ayniqsa, mustaqilligimizdan keyingi davrlarda xalqimizning eng yaxshi an'analari qayta tiklandi. Jumladan, "Xotira va qadrlash kuni"ning nishonlanishi o'tmish ajdodlarimizga cheksiz hurmatimiz belgisi bo'lishi bilan birga, yosh avlodda vatanga e'tiqodni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Biz milliy qadriyatlarni o'rganar ekanmiz, milliy an'analarni quyidagi ko'rinishda ifodaladik:

- vatanga e'tiqodni shakllantiruvchi an'analar (turli vatanparvarlikni tarbiyalovchi tadbirlarning o'tkazilishi, ko'rik-tanlovlarning tashkil qilinishi, harbiylar kunining nishonlanishi kabilar);

- mehnat an'analari (ommaviy hasharlarning tashkil qilishi, paxtakor, g'allakorlar mehnatini qadrlash, tozalik kunlarining o'tkazilishi);

- milliy o'yinlar, sport turlari (ko'pkari, milliy kurash, poygalar);

- oilaviy-maishiy an'analar (mehmondo'stlik, o'zaro hurmat, ota-onalarni e'zozlash kabilar);

- islom diniga hurmat yuzasidan o'tkaziladigan an'analar (qurbon hayiti, iydi ramazon);

- boshqa millat vakillariga hurmat yuzasidan o'tkaziladigan an'analar (rus, tatar, tojik, hatto chet mamlakatlar kunlarining tashkil qilinishi).

Shuningdek, o'zbek an'analarning ko'rinishlari ko'proq oila sharoitida namoyon bo'ladi. Oilaviy an'analar – bayram va marosimlar, oila hayotida ro'y beruvchi turli yutuq, voqea, sanalarni nishonlash, xotirlash sifatida o'tkaziluvchi an'analardan iborat bo'lib, ular yosh avlodda kichik vatan bo'lmish oila a'zolariga nisbatan hamjihatlik, hamdardlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, mehribonlik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu

*Yesam qars-qars, xuddi nok,
Ta'mi yoqar odamga,
Osh oldidan bir tovoq
Qirib berdim dadamga.*

Ekinlar o'zlari haqidagi she'rlar aytib bo'lgach, o'rta "Paxtaoy"- tashrif buyuradi.

*Men Paxtaoy bo'laman,
O'ynab zavqqa to'laman.
Terib olar paxtakor,
Xirmonlarda men tayyor.*

Sahnaga "Kuz – faslim" ijrosidagi ikkala sinf qo'shigi yangraydi.

1-boshlovchi: endi sahnaga 2"A"sinf bolalari ishtirokidagi "Oltin kuz" va 2"B" sinf "Oltin yaproq" jamoasini taklif qilib, ular bilimi va chaqqonligini "Ko'bik" metodidan foydalanib sinab ko'ramiz. (Bu metodning sharti: bo'laklarga ajratilgan meva va poliz ekinlaridan birining tasvirini yaxlit holatga keltirish talab etiladi).

2-boshlovchi

II shart. Zanjir metodi yordamida "Kuzdagi tabiat o'zgarishlari" ni ikki guruh jamoa a'zolari vakillari oxirgi kelgan harfdan davom ettiradi. Masalan: Yaproq, Quyosh, shamol...kabi.

Musiqiy tanaffus:

1-boshlovchi:

III shart. Jamoalarga tezkor savollar bilan murojaat etiladi. Bu metodda ikkala jamoa a'zolari boshlovchilar tomonidan berilgan savollarga tezlikda javob berishlari lozim bo'ladi. Masalan: Olma-meva, sabzi-poliz ekini, Shaftoli-meva, Shirin qovunlar mamlakati-asar nomi, kovoq-poliz ekini, nosqovoq-idish, behi-meva.

2-Boshlovchi

IV shart. Boshlovchilar tomonidan berilgan topishmoqlarga ikkala guruh a'zolari navbat bilan javob berishadi.

*O'zi shirin tukligina,
Mazasi ham totligina
(Shaftoli)*

*Yesang danagim bilan
Hamma uchun zo'r mish-mish.*

3-guruh bolalari poliz va dukkakli o'simliklar ko'rinishida chiqib kelishadi.

Qovun

*Bir karjini yeb ko'ring,
Shirin-shakar qovunman
Polizlarni yashnatgan
Ola chipor qovunman.*

Tarvuz

*Dum-dumaloq shaklim bor,
Hamma joyda sevishar,
Mazam ham rosa shirin
Shifobaxsjhligim bilgin.*

Qovoq

*Chiroyli taram-taram,
Somsalar yopar xolam.
Semiz deya kulmangiz,
Mag'zim shirin yesangiz.*

Piyoz

*Yerga chuqur botsam men,
Berkinolib yotsam men,
Izlab topdi oshpazlar,
Meni chopdi oshpazlar.
Yig'lamadim-Polvonman...
Lekin juda hayronman:
Oshpazlarning o'zlari
Nega yoshlar ko'zlarin?*

Turp

*Bir taxta eksam turp,
Chiqdi yerdan yugurib.
Qo'shquloq, shalpangquloq,
Mevasi dum-dumaloq.*

jihatdan o'zbekona oilaviy an'analarning o'ziga xosligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu esa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi, ya'ni ota va farzand, er va xotin, qaynona va kelin, aka va uka, qo'ni-qo'shni o'rtasidagi hurmat, e'tibor, samimiylik yuzasidan o'rnatilgan aloqalar jarayonida ko'zga tashlanadi. Oilaviy an'alar vorisiy hisoblanib, avloddan-avlodga berib boriladi.

Oilada bayram va an'analarni nishonlash, kishilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirishi bilan birga, oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, e'tiborni ta'minlab boradi. Bayramlarning chiroyli qilib o'tkazilishi oila a'zolariga ko'tarinkilik kayfiyatini baxsh etadi. Ayniqsa, bunda bolalar kattalar qatori o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi. Shuningdek, bolaning oiladagi xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Oilaviy an'analarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

– umummilliy an'alar (yangi yilni kutib olish, onajonlar bayrami);

– shaxs an'analari (farzand tug'ilishi, tug'ilgan kunlar);

– bolaning hayot yo'li bilan bog'liq an'alar (birinchi qo'ng'iroq, yoshlar tashkilotlariga a'zo bo'lish, fuqarolik pasportini olish, so'nggi qo'ng'iroq).

– milliy urf-odatlar bilan bog'liq an'alar (chaqaloqning qulog'iga azon aytish, beshikka belash, atak-chechak, muchal yoshining nishonlanishi, sunnat to'ylari).

Har bir millatning o'ziga xos urf-odatlari bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham rang-barang urf-odatlari, rasm-rusumlari, marosimlari asrlarga tengdoshdir. Xalqlar borki, shu udum, urf-odatlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi va mana shu urf-odatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Urf-odatlar, marosimu bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Jumladan, ularsiz o'zbek xalqining hayotini mutlaqo tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek xalqi bayramlari o'ziga xos bo'lib, "Navro'z bayrami", "Hosil bayrami", "Mehrjon bayrami" kabilar xalq hayotida muhim o'rin tutadi. Jumladan, ular bolalarda vatanparvarlik, urf-odatlarga hurmat hissini tarbiyalashda muhim manba bo'la oladi. Bolalarning bu

bayramlarda bevosita ishtiroki milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanga sadoqat, milliy g'urur shakllanishini ta'minlaydi.

Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rin egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir shaxs, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elat, xalqnig o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yi ajdodlardan-avlodlarga o'tib, bebaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi tarixning "sovuq shamollari" – bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar–hukmdorlar tayziqiga uchrab, nohaq yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni yengib, ko'pgina fazilat-lardan ajralsa-da, butunlay yo'qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan" [107; 3].

U.Qoraboyevning "O'zbekiston bayramlari" kitobida o'zbek bayramlarining tarixiga, shakllanish jarayoni, turlari hamda bugungi kunda yurtimizda nishonlanib kelinayotgan bayramlar haqida keng ma'lumot beriladi.

Shulardan mustaqillik bayramini olib ko'radigan bo'lsak, bu bayramga tayyorgarlikning o'ziyoq mamlakatimiz aholisiga katta ko'tarinkilik ruhini baxsh etadi. Bayram oldidan ko'cha va xiyobonlar bayramona tus oladi. Shahar, viloyat, Respublika miqyosida nishonlash, ommaviy axborot vositalari orqali vatanimizni madh etuvchi kuy va qo'shiqlarning yangrashi mamlakatimizda yashovchi har bir kishining qalbida vatanga nisbatan g'urur, iftixor, mehr-muhabbat hissini uyg'otadi. Bu bayramda kattalar qatorida bolalar ham ishtirok etishadi. Bayram bolalarga shodu xurramlik ulashish bilan birgalikda, namoyish etiladigan milliy kuy va raqslar, lapar va aytishuvlar, latifa va baxshilik san'ati namunalari orqali milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishadilar.

Urf-odatlar – kishilarning turmush tarziga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan va qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish,

Uzum

*Biz bir shoda uzummiz
Onam qo'shsak uzunmiz.
Kuz fasliga g'arq bo'lib
Pishgach quvatga to'lib
Asal bo'lgan uzummiz.*

Anjir

*Kecha-kunduz uxlamay,
Meva tugdim gullamay.
Mevam o'zi gulchadir,
Tillo rangli kulchadir.
G'odaymayman, sipoman.
Ko'p dardlarga shifoman.
Meni yesa Mutallib,
Yurmas edi yo'talib.*

Nok

*Nok mevalar asili,
Erta pishar hosili.
Shirinligi xuddi bol,
Pishganini terib ol.*

Shaftoli

*Ko'pligidan shaftoli
Shoxi yerga bukilar,
Tirgovuchlar ushlolmay
Shamol tursa, to'kilar.*

Yong'oq

*Aslim so'rsang,
Tog'likman.
Ismim- yong'oq
Yog'likman.*

Apelsin

*Shaklim yapaloq emish,
Xushbo'y hidim bor emish.*

2-boshlovchi:

Darhaqiqat, mehnat insonni ulug'laydi, unga go'zallik, zavq, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Ota-bobolarimizning bizga meros sifatida qoldirgan milliy qadriyatlarimizdan biri-bu mehnatdir. Chunki, milliyligimizga xos bolgan barcha ezgu fazilatlarimiz bu mehnat va hunarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, ulug' bobolarimizdan Ibn Sino ham "Inson hunarni puhta o'rganishi lozim. Chunki, hunar unga kelajakda ro'zg'or tebranishi uchun asqotadi. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi" deb bejis aytmaganlar.

1-boshlovchi: Albatta, har kimning zari bo'lmasada, hunari bo'lsin, chunki, hunarsiz kishi quruq savlatga o'xshaydi. Quruq savlat qotib qolgan suratdir. Sen suratga boq, u odamga o'xshasada joni bo'lmaydi yoki, daraxt shoxi mevasiz bo'lsa, kiyik shoxlaridan nima farqi bor? Qalam garchi cho'p bo'lsa-da, ilmu-hunarni oshkor etgani uchun azizdir.

Hozir biz sahnaga "Mehrjon bayrami"ning faol ishtirokchi a'zolari: kuzgi mevajonlarni taklif etamiz (Sahnaga olma, uzum, anor, behi, sitrus mevalarni 1-katta guruh shtirikida va qovuntarvuz, qovoq, oshqovoq, dukkaklilar, Paxtaoyini esa 2-katta guruh ishtirokida taklif qilamiz).

Olma

*Men sizlarning
Olmangiz,
Xomligimda
Olmangiz.
Nortojiga
O'xshab so'ng,
Voy, qornim, deb
Qolmangiz!*

Anor

*Oramizda
Yo'q baxil,
Bir uyda ming
Do'st ahil.*

yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi urf-odatlaridan hisoblanadi.

Bolalarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda marosimlarning ham o'rni muhim.

Marosim – an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi hisoblanib, kishilar hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ma'lum kayfiyatda o'tadigan, ramziy xarakterga ega bo'lgan tadbirlardir. Masalan, ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi va hokazolar.

Xullas, an'analar, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar insonning dunyoga kelishidan tortib, to umrining oxirigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bolaning dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, beshikka solish, yurishi, soch olinishi, sunnat to'yi, uylanish-nikoh to'yi, payg'ambar yoshi to'ylari, yuz yoshi, kumush to'y, oltin to'y kabi sanab o'tilgan marosim-odatlarimizning, boshqacha qilib aytganda, qadriyatlarimizning qirralari nihoyatda ko'pdir. Xoh oilada bo'lsin, xoh jamiyatda bu kabi marosimlarning nishonlanishi bola tarbiyasiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Bu qadriyatlar orqali yosh avlod barcha axloqiy xususiyatlarga ega bo'lib boradi, jumladan vatanga e'tiqodli, mehnatkash, ona tabiatni asrovchi, ota-onaning qadriga yetadigan, ilmi, saxiy, vatani uchun jonini fido qiladigan insonlar bo'lib yetishadi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlardan biri xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqi kabi qadimiy hisoblanib, uning qamrovi juda kengdir. Shulardan biri o'zbek xalq maqollaridir.

"Maqol" atamasi arabcha "qavlun" – gapirmoq, aytmq so'zlaridan olingan bo'lib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi lo'nda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba'zan to'g'ri, ba'zan ko'chma ma'noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik g'oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo'ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o'z shakliga ko'ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo'ladi.

Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yoʻnalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, maʼnaviy-axloqiy eʼtiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham L.N. Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini koʻraman”, – degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi.

Maqol tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga toʻxtaladigan boʻlsak, 2006-yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da maqol tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: – hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega boʻlgan ixcham, obrazli, tugal maʼnoli va hikmatli ibora, gap².

“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”da esa, maqol tushunchasiga shunday taʼrif keltiriladi: – xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap.³

Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlar mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir maqolda hamisha «taʼlim ulushi» - ibrat mavjud boʻladi: maqol tagida ibrat tusidagi aniq ramzni tushuniladi, bu ibrat hayotning turli koʻrinishlarini umumlashtirib, tugal jumla holiga kelgan boʻladi.

Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shaklga ega boʻlib, etnopedagogik vosita sifatida ular maʼnosini kuchaytiradi. Maqollar xotiraga mahkam oʻrnashadi. Maqolning asil vositasi tarbiyadir, ular qadim zamonlardan buyon taʼlim vositasi boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, ular taʼlim gʻoyasidan iborat, ikkinchi tomondan tarbiyaviy taʼsir koʻrsatib, taʼlim vazifasini bajaradi, xalq tasavvurlariga mos keluvchi tarbiya taʼsirining vositalari, uslublari tugʻrisida hikoya qiladi, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholaydi, shaxsning shakllanish maqsadlarini u yoki bu tarzda

² “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” Tom-2, 2006 yil, 222-bet.

³ Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. .T., “Davlat ilmiy nashriyoti”.Tom -5, 2003, 543-bet.

1-boshlovchi: endi bolalarimiz oʻz ijod namunalari asosida chizgan suratlarini namoyish qilishadi (bolalar uylarida chizib kelgan suratlarini taʼriflab berishadi).

Boshlovchi soʻz navbatini oʻqituvchiga beradi. Oʻqituvchi kamchilik, yutuqlar haqida gapiradi. Qushlar haqida aytilmagan maʼlumotlarni keltiradi va gʻolib jamoani eʼlon qiladi.

Oʻqituvchi: Aiz bolajonlar! Shu bilan bugungi tadbirimizni yakunlaymiz, faol ishtirokingiz uchun sizlarga katta minnatdorchilik bildirib qolamiz (Musiqi yagraydi. Tadbir yakunlanadi).

Mehrjon bayrami tadbiri ssenariysi

Maqsad:

A) bolalarda milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash.

B) yil fasllarining xususiyatlari haqidagi tushunchalarini umumlashtirish hamda ona tabiat, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabat koʻnikmasini shakllantirish.

(Sahna koʻrinishi)

Sahna bayramona ruhda, yaʼni sahnaning yuqori qismida “Mehrjon bayramiga xush kelibsiz” degan yozuvlar aks etadi. Sahna qoq ikkiga boʻlinib, kuzgi mevalardan tortib, ekinlargacha did bilan joylashtirilgan. Har bir sinf oʻz koʻrgazmasini namoyish qiladi. Yaʼni ikki sinf ishtirokida tadbir sahnalashtiriladi. Davraga ikkita boshlovchi chiqib keladi.

1- boshlovchi: *Aql-u bilim, shijoat odamlarniki
Vijdon bilan nomlanur har halol mehnat,
Mehnat ila topilgay hurmat, ehtirom
Mehnat oʻsha hurmatni saqlamoq demak.*

Assalomu alaykum aziz tadbirimiz qatnashchilari. Ushbu kun, yaʼni “Mehrjon bayrami” tadbirimizga xush kelibsiz. Dehqon bobomizning yetishtirgan hosillari, bogʻu-roʻgʻlari, poliz ekinlari, shirindan shakar mevalari, tilyorar qovun-tarvuzlarni koʻrib koʻzingiz quvonadi. Darhaqiqat, bu mehnat mahsuli yurtimiz tinchligi-yu, obodligi va farovonligiga qoʻshilgan munosib hissadir. Buning uchun bobo-dehqonlarimizga tashakkur aytamiz.

1-guruh



2-guruh



(Bolalar ballanib rag'batlantiriladi.)

aniqlab, tarbiyalanishga chorlaydi, o'zlarining tarbiyaciidek qutlug' vazifalarini mensinmaydigan katta yoshdagi odamlarni qoralaydi va hokazo.

Maqollarda bolalarning tug'ilishiga, ularning xalq hayotidagi o'rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag'batlantirish va jazolashga, o'qish mazmuniga, mehnat va axloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar fe'l atvoridagi fazilatlarini meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta'siriga daxldor ta'lim g'oyalari o'z aksini topgan va h.k.

O'zbek xalq maqollari dunyodagi boshqa xalqlarda bo'lgani kabi mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangdir. Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oiliy insoniy fazilatlar kabi inson hayotida muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlar singdirilgan. Shuning uchun ham bu maqollarni xalqning og'zaki qomusi bilan tenglashtirish odat tusiga kirgan.

Folklor materiali bo'lgan maqollarda bolalarni barkamol qilib tarbiyalashning usul va vositalari uyg'unlashadi. Maqollarda pand-nasihat, eslatish, rag'batlantirish, ogohlantirish kabi metodlardan foydalaniladi. Xalq maqollari o'quvchilarda mehnat tarbiyasini shakllantirishda bizga dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbek xalq maqollari orasida mehnat tarbiyasiga oid shunday maqollar borki, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyati va qadr-qimmatini yo'qotgan emas. Hali-hamon xalqimiz shu maqollardan mehnat tarbiyasini shakllantirishda foydalanib kelmoqdalar. Boshqa turdagi maqollar kabi mehnat tarbiyasiga oid maqollarda xalqimizning mehnatsevarlik tarbiyasiga oid qarashlari, hayotiy tajribalari, mehnat qilish va uning natijalari aks etgan. Aksariyat ota-onalar farzand tarbiyasida deyarli har kuni bu maqollardan foydalanadilar va ularning bolaga ta'sir kuchi ham benihoya kattadir. Bu maqollar o'zining tarbiyaviy ta'sirchanligi, ohangdorligi, sodda va ixchamligi bilan bolalarni o'ziga jalb etadi. Bolalar nafaqat maqollardan kerakli xulosani chiqarib oladilar, balki, ularni darrov yodlab ham oladilar.

Xalq maqollarining matni bilan tanishar ekanmiz, xalqimiz el farzandlarini bir-biriga hamkor, halol, mehnatkash, mard, vatanparvar, ilmni sevuvchi shaxs darajasiga ko'tarilishini ham xohlaganligiga ishonamiz. O'zbek xalqi orasida mehnat va mehnatsevarlik haqida quyidagi maqollar mavjud. Jumladan, "Halol mehnat yaxshi

*O'ynab dala qirlarda,
Kakku deya kuylayman.*

Musicha

*Meni ko'plar yuvosh der,
Kuk-ku-g'u.
Ba'zi birov bevosh der,
Kuk-ku-g'u.
Dehqon meni siylaydi,
Kuk-ku-g'u.
Omborchilar quvlaydi,
Kuik-ku-g'u.*

Qizilishton

*Daraxt qurtin teraman,
Taq-tuq-taq.
Unga shifo beraman,
Taq-tuq-taq.
Bog'lar bo'lsin hosildor,
Taq-tuq-taq.
Bog'bonga men madadkor,
Taq-tuq-taq.
Nog'oracho'p tumshug'im
Taq-tuq-taq.
Nafsiz ketmas qo'shig'im,
Taq-tuq-taq.*

To'rg'ay

*To'rg'ay, to'rg'ay, to'rg'ay
Bug'doyzor, qir, o'rga kel,
Qo'shiq ayt don haqida,
To'qchilik, non haqida.*

Zag'izg'on

*Laqqillamay sahardan,
Darak bergin shahardan.
Yuraklarga dalda ber,
Yoz kelar, deb va'da ber.*

*Ishlaganlar rohat qilib osh yeydi,
Dangasalar ta'na bilan tosh yeydi.*

Yoki:

*Aytilgan so'z — otilgan o'q bo'ladi,
Mehnatkashning turmushi to'q bo'ladi.
Takasaltang, ishdan qochar dangasaning —
Xalq ichida hurmati yo'q bo'ladi.*

Xalq qo'shiqlari qalblarning otameros xalqona e'tiqodlardan qonib - qonib suv ichib boyishiga e'tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligini yodda tutgan holda bebaho ma'naviy merosimizni avlodlarga yetkazish har birimizning vazifamizdir.

Doston — qissa, hikoya, ta'rif, sarguzasht ma'nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo'lib, xalqning ma'naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ'ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo'rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o'rnak olish hissi tug'iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. "Baxshi" mo'g'ulcha va buryatcha "baxsha", "bag'sha" so'zlaridan olingan bo'lib, "ustod", "ma'rifatchi" degan ma'nolarni anglatadi.

Og'zaki drama — etnopedagogika yo'nalishidagi ijodning mustaqil turi bo'lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og'zaki dramada tomosha ko'rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og'zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko'zlik, ko'zbo'yamachilik, zulm, adolatsizlik, zo'ravonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya — arabcha "zakiy" so'zidan olingan bo'lib, "so'zamol", "o'tkir", "zehnli" degan ma'nolarni anglatadi. Askiya — so'z o'yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida "Bo'lasizmi", "o'xshatdim", "Gulmisiz, rayhonmisiz,

jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko‘pincha to‘y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi.

Afsona – arabcha so‘z bo‘lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma’nosini anglatadi. Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o‘quvchini ushbu qahramonlarga o‘xshashga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarni egallashga undaydi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo‘lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog‘liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat o‘quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg‘otadi.

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlarni fikrlash qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat”, “Har kim qilsa o‘ziga”, “Odam-odam bilan tirik”, “Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo‘shnikida” kabi.

Naqllarda salbiy-tarbiyaviy sifatlarga ijobiy-tarbiyaviy sifatlarni qarshi qo‘yiladi. Garchi, To‘g‘rivoy (Yaxshivoy, Soddavoy) yo‘lda Egrivoy (Ayyorvoy, Yomonvoy)ga aldanib qolsada, keyinchalik sehrli yordamchilar tufayli u g‘alaba qilib, murodiga yetadi. Egrivoy esa misi chiqib, sharmanda bo‘ladi.

Naqllarda yashirin holda tarbiyaviy o‘gitlar ifodalanib, nihoyasida qissadan hissa chiqariladi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy) so‘zidan olingan bo‘lib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma’nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg‘ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho‘pchak” deb ataladi.

*Bebosh, nodon, kaltafahm
Qushlarga tosh otgan bola.*

Boshlovchi: Mana do‘stlar, qushlarga ozor bergan bolalar yomon bola bo‘ladi. Biz qushlarga don berib, uyalar yasab berishimiz kerak. Sizlar qushlarni qiynamaysizlarmi?

Hamma:

Yo‘q,

Boshlovchi:

Ularga yordam berasizmi?

Hamma: Ha.

Yomon bola qilmishidan uyalib kechirim so‘raydi, shundan so‘ng bolalar qushlarni chaqirishadi:

*Hoy qushlarjon kelinglar,
Bizga mehmon bo‘linglar.*

(Qushlar kiyimidagi bolalar kirib keladi: kaptar, turna, chittak, kaklik, bulbul, turg‘ay, zag‘izg‘on, musicha, qizilishton)

Kabutar

*Tinchlik qushi kaptarman,
Xabarchilikka borman.
Oppoq-oppoq qanotman,
Qushlar ichra bir zotman.*

Turna

*Men turnaxon bo‘laman,
Fazolarni kezaman.
Bahordan berib darak
Kuylab qo‘shiq aytaman.*

Chittak

*Men qushchaman mittigina,
Tillarim chuchukkina,
Olachipor qanotim,
Bilsangiz chittak otim.*

Kaklik:

*Kaklik qushman yayrayman
Bog‘larda men sayrayman.*

1-boshlovchi:

Assalom bayramimizning quvnoq o'g'il-qizlari,
She'riyat osmoninig chaqnoq yulduzlari,
Qabul aylang do'stlarim, deymiz assalom,
Qo'limiz ko'ksimizda, salom-assalom!

2-boshlovchi:

Assalomu alaykum aziz mehmonlar, ustozlar, qadrli bolalar.
 Mana bugun maktabimizda katta tantana. "Qushlar bayrami"
 mavzusiga bagishlab o'tkazilayotgan tadbirimizga xush kelibsizlar!
 (Davraga **qaldirg'och** kiyimidagi bola keladi.)

Bolalarga qarab:

Qaldirg'ochman qaldirg'och
Men keldim yozib quloch.
Horib keldim men shu choq
Ko'kka solib arg'imchoq

Bolalar:

Qaldirg'ochjon kelaqol,
Bizga mehmon bo'laqol.

Boshlovchi:

Qaldirg'och do'stlaring qani,

Qaldirg'och:

Ularga yo'lda bir yomon bola duch keldi. Ular kelishga
 qo'rqishyapti.

(Davraga yomon bola qiyofasidagi bola kirib keladi).

Yana qaldirg'och: U qushlarga tosh otadi.

Boshlovchi: Bolalar aytingchi qushlarga tosh otgan bola
 qanday bola?

Hamma:

Yomon bola

1-bola:

Yaxshi bola emasdir - u,
Sizga aytar so'zimdirdi bu,
Qushlar bilan do'stlashmay,
Ularga tosh otgan bola.

1-bola:

Uni derlar berahm,
Qilar ishi doim zahm.

Ertaklarda mo'jiza yoki sarguzasht ma'lum voqea-hodisalarni
 hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik,
 olijanoblik g'oyalarini targ'ib etadi. Shuning uchun ular bolani
 o'ziga ko'proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy
 ahamiyatga egadir. Jumladan: "Chol bilan kampir", "Bulbuligo'yo",
 "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar", "Bo'ri bilan qo'zichoq",
 "Baxtli kal" singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning
 hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar ("No'xatvoy",
 "Quloqvoy", "Handalak polvon", "Yapaloqpolvon" ...) haqidagi
 turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiya-
 viy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir.
 o'zbeklarda latif qaytarish, so'zga chechanlik musobaqasi shaklida
 o'tkaziladi.

Bolalar ertak eshitishni, o'qishni sevadilar. Shunga ko'ra
 boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda ertaklardan
 keng foydalanish keng imkoniyat beradi. Ertaklarda bayon etilgan
 mazmun, qahramonlarning axloqiy fazilatlarini va an'analari qancha-
 lik yuksak badiiy tarzda ifodalanmasin, uni idrok etish ertakning
 qanday o'qilishiga, o'quvchining ertak matni mazmuniga bo'lgan
 munosabatiga, qahramonlar obrazining qay darajada idrok etishiga,
 voqealarning jiddiyligiga, uning axloqiy yo'nalishini anglay
 olishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bola ertakni o'zi o'qiganida
 bular e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun bolalar ko'pincha
 ertakni o'qishdan eshitishni afzal biladilar. Chunki, bunda ertak
 aytib berayotgan katta yoshdagi odam ertak mazmunini, undagi
 voqea tafsilotini, qahramonlar sarguzashtini, ichki kechinmalarini
 badiiy bo'yoqlarda, ovoz intonatsiyasini ifodalash bilan bolada
 kuchli hissiyot uyg'otadi. Hikoya qilishning emotsionalligi, uning
 badiiyligi, ertak mazmunining obrazli ifodalanishi tufayli bolalar
 tomonidan g'oyat jiddiy va kuchli his etiladi, shunga ko'ra ular
 hikoyaning biror so'zini e'tibordan qoldirmaslikka urinib, diqqat
 bilan berilib, jon dillari bilan tinglaydilar.


Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos xususiyat bu
 bevosita idrok, soddadillik, ro'y berayotgan hodisalarning haqi-
 qatligiga bo'lgan ishonch sababli u ertakda hikoya qilinayotgan
 voqealarda fikran ishtirok etadi va ertak personajlarining boshidan
 kechirayotgan hodisalarini chuqur his etadi.

Bolalardagi bu xil ichki faollik tufayli voqealarni anglashi kuchli bo'ladi, ulardan o'rganishga, shunday bo'lishga intiladi. Ertaklardagi mehnat qilish va hunar o'rgatish haqidagi g'oyalar, qahramonlar hayotidagi mehnatning o'zni, kuchi ular uchun ibrat vazifasini o'taydi. Biroq ertak aytib beruvchi shaxs ertakning mazmunini va undagi axloqning ma'nosini chaqib, o'zicha talqin etib, undan o'rnak olishga da'vat etishi nomaqbuldir. Bunda ertakning badiiy kuchi yo'qoladi, ta'siri pasayadi. Ertak aytuvchilarga: "Bu yaxshi bu esa yomon, shuning uchun va shu haqda, ularga yaxshini ko'rsating, biroq ularga yaxshisiz deb ham aytmang, ana shunda bolalar o'zlari o'zlarining fikrlarini tushunadilar, nima yaxshi, nima yomonligini fahmlaydilar. Biroq sen yomonsan deb ham aytmaslik kerak. Mana bu yaxshi, buni yomon deb o'zlari fahmlaydilar, nima yomon bo'lsa o'zlaridan xoli etishadilar", - deb bejiz aytishmagan.

"Hunarli yigit" ertagi



"Donishmand cho'pon" ertagi



"QUSHLAR BAYRAMI" ERTALIGI

Ertalikning maqsadi:

a) bolalarda ona tabiat, hayvonot dunyosi va qushlarga nisbatan ijobiy munosabat hamda ularni asrab-avaylash ko'nikmasini shakllantirish;

b) bolalarda qushlarning yashash tarzi, oziqlanishi, ko'payishi, rivojlanishi haqida bilim, tushunchalarni hosil qilish;

Bayram tayyorgarligi: Bayram o'tkaziladigan joy va uning jihozi: zal bayramona bezatilgan. Sahna atrofiga har xil qushlar surati aks etgan plakatlari, "Qushlar bizning do'stimiz", "Qushlarni seving" shiorlari osilgan, qafaslarda jonli qushlar keltirilgan, orasurada bedana qushining jarangdor, sayroqi ovozi eshitilib turibdi. Sahna milliylikka yo'g'rilgan ruhda.

Mas'ul shaxslar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbari, ota-onalar qumitasi raisi va sinf faollari.

Bayram rejası:

1. Kirish (Kechani ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ochib beradi).

2. Asosiy qism: Bolalarga bayram ochiq deb e'lon qilinadi; Tadbir boshlanadi.

3. Bolalar ishi bo'yicha "Yosh musavvirlar" musobaqasi uyushtiriladi.

4. Faol bolalar rag'batlantiriladi.

5. Tadbir yakunlanadi.

Tadbir syenariysi:

Bayram jarchilarning chiqishi bilan boshlanadi:

1- jarchi: Bolalar-u bolalar,

2- jarchi: Yurtdagi gul- lolalar!

1- jarchi: Eshitmadim demanglar,

2- jarchi: Eshitganlar jilmanglar!

1- jarchi: Bugun maktabimizda

2- jarchi: Katta tadbir bo'ladi, ho-ho-hoy!

1-2- jarchilar:

"Qushlar bayramiga xush kelibsizlar!!!

Sahnaga 2 ta boshlovchi chiqadi:

Tabiat momo - barakalla qizlarim, ajoyib raqsingiz bilan dillarni xushnud qildingiz. Endi sizlarning zukkolik darajangizni ham sinab ko'rsam qarshimasmisiz.

Qizlar – yoq aksincha, biz bundan juda xursand bo'lamiz
Ustozlardan olgan ilmni amalda sinab ko'ramiz.

Tabiat momo – Bolalar iltimos, elektron doskani olib kelinglar (Boqivoy va qizlar sahnaga ikkita elektron doska olib keladilar. Tabiat momo doskalarga atirgul so'zini yozadi va sinkveyn metodi shartini tushuntiradi. Qizlar ikki guruhga bo'linib, shartni bajarishga kirishadilar. Shart quyidagicha bajarilishi mumkin).

Atirgul (**ot**)

Xushbo'y, chiroyli (**sifat**)

Hid taratadi, kayfiyatni ko'taradi, havoni tozalaydi (**fe'l**)

Qizlar qizil atirgulga o'xshaydi (**ibora**)

Gul (**sinonim**)

Tabiat momo - rahmat sizlarga bolajonlar, bugun siz meni bilimdonligingiz, zukkoligingiz, donoligingiz, chiroyli raqs va qo'shiqlaringiz va meni asrashga bo'lgan ishtiyoqingiz bilan xursand qildingiz.

Endi sizlar bilan xayrlashadigan vaqtim keldi.

Boshlovchi: Aziz bolajonlar hamda hurmatli tadbir qatnashchilari shuning bilan birga bugungi "Gullar bazmi" nomli tadbirimiz o'z poyoniga yetdi. Barchamiz Ona tabiatni asraylik, zero:

*Tabiatning, go'zalligi, sofligi,
Bizga kerak qanchalar,
Insoniyat taqdiri
Bog'liq erur shunchalar.*

Shunday ekan biz barchamiz ona tabiat in'omlarini ko'z qorachig'iday asrashimiz lozim. Xayr sog' bo'linglar!

Ertak ta'sirida bo'lgan bola qalbida mehr, muhabbat, mehnatga intilish, do'stlik, ona vatan va do'stlariga sodiqlik tuyg'usi ortib, yomonlik, yovuzlik, dushmanlik kabi salbiy holatlarga nisbatan nafrat hissi kuchayadi. Birobarin ertaklar o'quvchilarni xalq hayoti, til boyligi, urf-odati bilan tanishtiradi. Qiyinchiliklarni yengishga, mehnatda sabrli bo'lishga o'rgatadi. Bolajonlarga shu jihatdan ertaklar katta ahamiyat kasb etadi. Ertaklar dunyo voqealari va hodisalarini, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rostgo'ylik va aldatchilik haqidagi xalq tasavvurini aks ettiradi. Ertaklar yordamida bola hayoti, odamlar munosabatida ana shu fazilatlarining ro'y berishini ko'rib, ezgulikni qalb hissi bilan idrok qiladi.

Bolalar yaxshilik va yomonlik haqidagi ertaklarni hayajonlanib tinglaydilar. Ular har bir ertakni bir necha marta, qayta-qayta tinglashdan zerikmaydilar. O'zlari ham uni sevib mutoala qiladilar. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasida xalq og'zaki ijodi manbalaridan bola tarbiyasida unumli foydalanilgan, ayniqsa, ertaklar tarbiyaning samarali vositasida qo'llanilgan.

Latifa arabcha – latif, mayin, lutf demakdir. Latifa satira va yumorga asoslangan. U latifalarda o'ta aqlli, noziktabiat, insonparvar, mehnatsevar kishi sifatida salbiy axloqiy sifatli kishilarni masxara qiladi. Zaxarxanda kulgi, kinoya, kesatiq, xazil-mutoyiba vositasida yomonliklarni bartaraf qiladi.

Lof – mustaqil etnopedagogik tur bo'lib, ularda notabiiy voqealar, salbiy xislatlar tanqid ostiga olinadi. Loflar mubolag'ali epizodga mantiqiy mos javoburushi yillarida dushmanga nisbatan nafrat ruhida xalq qo'shiqlari yaratildi. Ularda qahramonlikka chorlovchi ruh ustun darajada edi. Ushbu janrlar orasida bola tarbiyasida muhim manba bu xalq o'yinlari hisoblanadi.

Bolalarini barkamol insonlar etib tarbiyalashning muhim shakllaridan biri – bu milliy xalq o'yinlaridir. O'yinlarni tashkil qilish bolalarni yanada ijtimoiy hayotga yaqinlashtiradi, ular o'zlari-ning sevimli mashg'uloti, ya'ni o'yinlarda ishtirok etishdan katta zavq oladilar. Shu bilan birga, o'yin o'ynash orqali bolalarda mashg'ulotlar jarayonida hosil bo'lgan zerikish va toliqish holatlarining oldi olinadi. Bizga ma'lumki, ushbu yoshdagi bolalarning diqqati bekaror bo'ladi, tez-tez qaytariladigan o'yinlar ham ularning zerikishiga olib keladi.

O'zbek xalq o'yinlari qadimiy va turli-tuman bo'lib, bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik hamda ekologik jihatdan tarbiyalashga o'z hissasini qo'shadi.

Bolalardagi o'yin faoliyatining tarbiya jarayonidagi o'rniga Sharq mutafakkirlari va pedagoglari ham katta e'tibor bilan qarashgan. Jumladan Abu Ali ibn Sino o'yinning bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tgan.

“O'yin” so'zi lug'aviy va ko'chma ma'nolarda turli hodisalarni anglatadi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra ko'ngil ochish, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulotni anglatadi, ko'chma ma'nolarda “siyosiy o'yin”, “diplomatik o'yin”, “harbiy o'yin” ma'nolarida ifodalanadi.

Aslini olganda, raqs, sport va o'yinning harakat negizida o'zaro mushtaraklik kasb etsa-da, lekin ular mohiyatan bir-biridan farq qiluvchi hodisalardir. “Chittigul”, “Ha kishma-kishma”, “Sandiqchayu-quticha” singari qator bolalar o'yinlarida raqsga xos ritmik harakatlarni kuzatish mumkin. Shu sababli ham boshlang'ich sinflar bilan o'tkaziladigan bayram tadbirlarida shu kabi bolalar o'yinlaridan foydalanishni rejalashtirish mumkin. Ayniqsa, sahna ko'rinishlariga boy bo'lgan tadbirlarni tashkil etishda qahramonlik ruhida, hayvonlar haqidagi o'yinlardan foydalanish juda o'rinlidir. Bunda bolalar rollarga bo'lingan holatlarda ushbu o'yinlarni ijro etib bayramni yanada qiziqarli o'tishiga sabab bo'ladilar. Bunday o'yinlar sirasiga “Eng chaqqon”, “Arqon tortish”, “Kim tezroq”, “Epchil quyon”, “G'ozlarim”, “Chumchuqlar va mushuk”, “Quyonlar”, “Ayiqlar” kabi o'yinlarni kiritish mumkin. Tadbirlar jarayonida bo'ladigan savol-javoblar uchun esa maishiy bolalar o'yini hisoblangan “Shaftoli-shakar”, “Podsho bo'ling”, “Kim topag'on” o'yinlaridan foydalanilsa bo'ladigan tortishuvlar juda qiziqarli tusda o'tadi. Chunki bu kabi o'yinlarning zamirida topishmoqlik tortishuvlar muhim o'rin tutadi.

Pedagoglar o'yin tarbiyaning vositasi sifatida xizmat qilishidan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega ekanligini, avvalo bolaning hayotini, qiziqishlarini yaqqol ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ularning ta'kidlashicha, bolada o'yinga kuchli ishtiyoq bo'ladi va mana shu ishtiyoq o'yin orqali qondirilishi mumkin.

Sattor Mahmudov o'zining “O'zbek udumlari” kitobida milliy o'yinlarning ahamiyati haqida to'xtalar ekan, quyidagi fikr-

Gul sotuvchisi - xo'sh, bolalar qanday xona gullari bor ekan, ularning nomlarini takrorlangchi?

Bolalar- kaktus, begoniya, yorongul, fikus, kameliya, lola, fialka, xitoy atirguli, liliya, aloye, sansevara va boshqalar (bolalar galma-gal sanashadi).

Gul sotuvchi- qaysi donishmandlarimiz asarlarida xona gullari haqida ma'lumotlar keltirilgan?

Rayxon- Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi allomalarimiz asarlarida xona gullarining nomlari, tasviri va shifobaxsh xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Gul sotuvchi -xona gullari qanday yo'llar bilan ko'paytirilgan ekan?

Soqivoy- begoniya, yorongul, fikus, kameliya qalamchalari orqali ko'paytiriladi.

Gulnoza- lola va liliyalarda esa piyozboshidan ko'paytiriladi.

Gul sotuvchisi - barakalla bolalar, endi, kaktus haqida aytgan ma'lumotlarimni takrorlangchi?

Soqivoy- bu gul quruqlikni yaxshi ko'radi, uning vatani janubiy o'lkadir ya'ni Amerika va Meksika hisoblanadi. Kaktuslar-kaktusdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik semiz poyali o'simlik.

Rayxon - uning shakli turli xil ko'rinishga ega bo'lib, tashqi tomondan tikanak bilan qoplangan. U bir necha guruhlariga bo'linadi: opunsiyalar-dumaloq yoki ovalsimon yassi, bir-biriga birikib o'sgan tanadan iborat.

Gulnoza - sereuslar-tanasi yo'g'on, ustunsimon etdor, mamileyariyalar-so'rg'ichsimon, chiroyli gullaydi. Kaktuslarning bundan boshqa ham turlari mavjud bo'lib ular suvni uncha xushlashmaydi. Kaktuslarni kompyuterlar oldiga nurlardan saqlanish uchun qo'yiladi. Ularni yorug'lik yaxshi tushadigan joylarda o'stirish tavsiya etiladi.

Gul sotuvchisi - xona gullarining yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun eng zarur narsa nima ekan?

Bolalar - quyosh nuri va yorug'lik, deya baravariga javob berishdi va sahna yanada yorug'lashdi (“Quyoshjon”ashulasi yangraydi va sahnada boshlariga gulchambarlar taqqan qizaloqlar raqs ijro etishadi).

Rayxon- unda seni gul sotuvchisi yoniga olib boramiz.

Boshlovchi - shunday deya qizlar Soqivoyni gul dukaniga olib borishibdi.

Rayxon, Gulnoza, Soqivoy – Assalomu-alaykum amakijon!

Gul sotuvchisi - Vaalaykum-assalom bolalar, kelinglar bizdan qanaqa xizmat. Sizlarga qanday xona gullari kerak?

Soqivoy - kechirasiz, amakijon, bizlarga xona gullarini parvarish qilish haqida ma'lumot kerak edi.

Gul sotuvchisi – Bajonudil, bu savollaringizga javob berishga harakat qilaman.

Boshlovchi - Gul sotuvchisi bolalarni xona gullari bilan nomma-nom tanishtirib, ularni qanday parvarish qilish haqida batafsil ma'lumot berdi.

Gul sotuvchisi - xo'p! bolalar men aytgan ma'lumotlar yodingizda qoldimi? keling bir takrorlab ko'ringchi? gul parvarish qilishni qay darajada o'zlashtirib olibsiz. Buning uchun men sizlarga gullarning nomi yashiringan krossvordni beraman, siz uni tarbiyachingiz bilan yechishga harakat qilib ko'ring? Tarbiyachingiz sizga savol beradi, siz esa javob qaytarasiz. Birgalikda ushbu katakchalarni to'ldirib boramiz.

Bolalar – biz tayyormiz.

			1		2		3		4		6	7
X	I	T	O	Y	A	T	I	R	G	U	L	I
									5			

Javoblar:

- | | | |
|-------------|-------------|-----------|
| 1. Yorongul | 2. Sarsabil | 3. Liliya |
| 4. Begoniya | 5. Aloye | 6. Lola |
| 7. Fikus | | |

larni bildirib o'tadi: "Darhaqiqat, o'yinlar butun avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz hozirgi zamon siz kabi avlodlarning jismoniy, aqliy, ma'naviy kamol topishlariga beqiyos katta hissa qo'shgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi. Chunki, yosh avlod uchun o'yin bu hamma zamonlarda turmush tarzi, hayot omili, uning o'lchovi bo'lib qoladi. O'yinning mazmuni boyib, shakllari ko'payib boraveradi. Taraqqiyot shuni taqozo etadi. Chunki, bugungi bola - ertangi kunning ijodkor yaratuvchisidir. O'yin bu ijod, o'yin bu hayotdir".

Darhaqiqat o'yin bola uchun yashash tarzi, asosiy faoliyat jarayonidir. O'yinlar jarayonida bolaning dunyoqarashi shakllanadi, u o'zini o'yin jarayonida kashf qilib boradi.

Biz o'zbek xalq o'yinlarining ahamiyati haqida to'xtalar ekanmiz, ularning bolaga tarbiyaviy ta'sirini quyidagicha ifodaladik:

- milliy xalq o'yinlari orqali bolalar milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanisha boradilar;

- milliy xalq o'yinlari orqali bolalarning lug'at boyligi yanada oshadi;

- milliy xalq o'yinlari orqali jismoniy sog'lom, haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlar yetishib chiqadi;

- milliy xalq o'yinlari orqali bolalarda chaqqonlik, topqirlik, mardlik, ephillik kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi.

Maktab sharoitida quyidagi o'zbek xalq o'yinlaridan barkamollikni tarbiyalovchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

“Chir aylanma”

O'yinning borishi: Bu o'yin kengroq joyda o'ynaladi. 12-15 bola ishtirok etishi mumkin. O'yinda bir bola “Burgut”, bir bola “Onaboshi”, qolganlari esa “Jo'ja” bo'ladi. Maydon o'rtasiga katta aylana chiziladi. Barcha jo'jalar bir-birlarining bellaridan ushlab oladilar. Eng oldingisi onaboshining belidan ushlaydi. “Burgut” kelib onaboshiga: “bir bolangdan qarz berib tur”, deydi. “Kechagi bolam qani?”, deydi onaboshi. Burgut esa “bolangni tuzlashdi, qalampir sepishdi, piyozga qorishdi, qarg'a “qag” dedi, mushuk “miyov” dedi, oldi, qochdi, ketdi”, deydi-yu, birdan jo'jalarga tashlanadi. Onaboshi: “Qoch bolam, burgut keldi”, deb qichqiradi.

Burgut oxirgi jo'jaga qo'l tekkizishga harakat qiladi. Onaboshi jo'jalarni himoya qiladi. Jo'jalar bir-birlarini qo'yib yubormagan holda, burgutdan qochadilar. Agar burgut oxirgi jo'jaga qo'l tekkizsa, qush asir tushgan hisoblanadi va chizilgan aylana ichiga borib turadi. Onaboshi o'z jo'jalaridan ajralmagan holda bolasini qutqarishi mumkin. Buning uchun onaboshi aylanaga yaqinlashib, asir jo'jaga qo'l tekkizadi. Ozod bo'lgan jo'ja darrov boshqalar qatoriga qo'shib oladi.

O'yinning shartlari: "Burgut" faqat eng keyingi "Jo'ja"ni ushlaydi. O'yin davomida burgut va onaboshini almashtirib turish mumkin. Asirlikdan ozod bo'lgan jo'ja qatorning istagan joyida tura oladi.

"Kosa, kosa, ne kosa"

O'yinning borishi: bu o'yinda bolalar teng ikki komandaga bo'linib, bir-birlariga paralel holda tizilib o'tirishadi har ikki guruhdan guruh boshlig'i saylanadi. Har ikki guruh boshlig'i guruhidagi bolalarga narigi guruhga eshittirmasdan nom qo'yib chiqadi. Masalan, gullarning nomini qo'yishi: atirgul, rayhon, gulsapsar, karnaygul, nomozshomgul va boshqa gullar nomi bilan atashi mumkin. Birinchi guruh boshlig'i narigi guruhdagi bir bolaning ko'zini bog'lab turadi, so'ng o'z guruhining bir bolasi nomini ya'ni, masalan: "Atirgul" ni chaqiradi, "Atirgul" esa ko'zi bog'langan bolani chertib ketadi. Bola borib joyiga o'tirgach bolalar "Kosa, kosa ne kosa" deb baqirishadi. Keyin ko'zi bog'langan bola chertib ketgan bolani topsa, uni o'z guruhiga oladi, topolmasa o'zi o'sha guruhga qo'shilishi kerak. Bu o'yin bolalar qolmaguncha davom etadi. Yutib olgan guruh g'olib hisoblanadi.

O'yinning qoidasi: bolalar nomlanayotgan paytda ikkinchi guruh ularning nomlarini eshitib qolmasligi kerak. O'zaro kelishgan holda guruh boshliqlari almashtirilishi mumkin. O'zbek xalq o'yinlarining turlari xilma-xil bo'lib ulardan o'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida samarali foydalanishlari mumkin.

Ahillik va inoqlik, do'stlikni targ'ib qilish g'oyasi **"Bordim, keldim-yo'q!"** o'yinida nihoyatda bo'rtib turadi. Bayram tadbirlarida bu o'yindan foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bu o'yinni qo'llash orqali o'tkazilayotgan tadbirning tarbiyaviy

Tabiat momo (jahli chiqib).

*Ko'rmagandim bunday holni,
Bu Soqivoy qanday bola,
Ozor berib gullarga,
Nimalarni qilib hayol,
Botirman deb o'ylaganda,
Yoki kuchin ko'rsatganmi?
Bir g'alamis o'rgatganmi?*

*(Gullar birgalikda)
Biz gullar bu zaminni,
Go'zallikka chulg'aymiz.
Bizlarda bor ko'p xislat,
Dardga shifo bo'lgaymiz.*

Boshlovchi: Soqivoy qilgan ishidan uyalib, yerga qaradi va:

*Endi gulni uzmayman,
Yanchishga qo'l cho'zmayman.
Kechiring meni do'stlar,
Safingizga qo'shinglar
Shu ondan yomonlikdan
O'z-o'zimni tiygayman
Ezgu ish, yaxshilikni
Hozirdan boshlagayman.*

Tabiat momo (xursand bo'lib) Barakalla.

Gullar: biz endi Soqivoyni o'zimizga do'st deb bilamiz.

Gulnoza – ko'rdingmi Soqivoy, gullarning ham joni bor.

Pauxon – ham bizlarga foydasi bor. Kel, ularni qilmaylik xafa.

Soqivoy – Qizlar aslida men xona gullarini o'stirishni hohlayman, ammo negadir men ekan gullar sira o'smaydi, shu bois boshqalar ekan gullarni ochilib turganini ko'rsam, toqat qila olmasdim. Ayni damda qilgan ishimning xato ekanligini anglab yetdim, boshqalar mehnatini qadrlashni, hurmat qilishni o'rgandim.

Gulnoza - Soqivoy, demak senga xona gullarini parvarish qilish haqida ma'lumot va ko'rsatmalar kerak ekan.

Soqivoy: nima uchun? Men xohlagan ishimni qilaman.
Mana, mana.

Boshlovchi: deb Soqivoygullarni uza boshlabdi.

(Shunda birdan momaqaldiroq bo'libdi. "Bahor vasli" musiqasi yangrab, davraga Tabiat momo kirib kelibdi).

Boshlovchi: Tabiat momo Soqivoyga qarab:

*Gullarning ham joni bor,
Ozor bersang og'riydi.
Axir gullar ona yer
Havosin tozalaydi.*

Soqivoy esa:

*Ey, qo'ysangizchi Tabiat momo
Endi shu gul uzishni ham qilmang muammo.*

(Tabiat momo qo'lidagi sehrli tayoqchasi bilan gullarga jon kiritib boshlabdi. Chiroyli musiqa yangraydi. Davraga turfa gullarni ifodalavchi kiyimlarda gullar raksi ijro etilib, gullar kirib keldi).

Atirgul:

*Bu Soqivoy har kuni
Gul bandimni uzadi.
Uzgani yetmaganday,
Barglarimni ezadi.*

Chinnigul:

*Soqijonning dastidan
Holim bo'ldi juda tang.
Ana ishonmasangiz
Boshqa gullardan so'rang.*

Binafsha:

*Men Soqivoy dastidan,
Turmayman hech ochilib.
O'zi faqat bahorda,
Kelaman mehmon bo'lib.*

(Boshqa gullar ham baravariga)

*Biz bezormiz Soqivoydan,
Kirmasin hech gulzorga.
Shunda bizlar yayrab- yashnab,
Aylanamiz chamanzorga.*

ahamiyati yanada oshadi. Bu o'yinda bir necha bolalar ishtirok etishi mumkin. **O'yin tartibiga ko'ra:** bolalar bo'y-bo'ylariga qarab tizilib, "bililim-bililim" deb kelishadi. Bir kampir(bolalarning bo'yi balandrog'i kampir rovida o'ynaydi) o'tin terib yuradi. Kampirning oldida aylana chizilgan bo'ladi. Bolalarning boshlig'i: "Buvijon, bizni daryodan o'tkazib qo'ying", -deydi. Kampir har bir bola unga biror narsa olib kelishini shart qilib, rozi bo'ladi. Narsalar esa ro'mol, tufli, ko'ylak va hokazolar bo'lishi mumkin. Bolalar bu shartga rozi bo'lishadi. Kampir ularni daryodan o'tkazib qo'yadi. Bolalar qaytib kelishlarida yana o'sha kampirga duch keladilar. Kampir ularga qo'ygan shartini eslatadi. Bolalarning hammasi: "Olib keldik, bizni daryodan o'tkazib qo'ysangiz, beramiz", - deyishadi. Kampir ularni daryodan o'tkazib qo'yadi. Biroq, bolalar:" Hovuzdan suv ichayotgan edik, narsamiz unga tushib ketdi", - deyishadi. Shunda kampir ulardan eng oxirida turgan bolani berib ketishni so'raydi. Bolalar esa: "Bermaymiz", - deyishsa, kampir: "Baribir olaman" - deydi.

Bolalar: "Ololmaysiz",- deb qocha boshlasa, kampir ularni quvlashga kirishadi. Saf boshida turgan bola ikki qo'lini yozib, kampir yo'lini tusadi. Qolgan bolalar uning orqasidan yugurishadi. Kampir bir bolani ushlab, o'zi bilan olib ketadi. Lekin bolalar uni o'g'irlab, o'z o'rtoqlariga yashiradilar. Kampir kelib, ulardan o'sha bolani so'raydi. Bolalarning hammasi birdan: "Xolasi, yo tog'asi, yo bobobsi chaqirib ketdi.", - deb aytishadi. Kampir nariroq borib, yana qaytib leladi va "Bordim, keldim-yo'q"-deydi. Kampir yana: "O'rtangizda turgan o'rtog'ingizni ko'rsatinglarchi", - deydi. Shu vaqtda o'sha bola o'rnidan turib qocha boshlaydi, kampir esa uni quvlaydi. Kampir bolani ushlab olsa-bola kampirniki, ushlay olmasa - kampir bolalarniki bo'ladi.

O'yinda kim mag'lubiyatga uchrasa u o'sha davradagilar talabiga ko'ra ashula, she'r aytasi, yo raqsga tushadi.

Yuqorida keltirgan bu o'yinni tadbirlar jarayonida rollarga bo'lish asnosida bajaratirilsa, yanada qiziqarliroq bo'ladi. Negaki, har bir bola o'yin jarayonida o'z xulqini, xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadi.

Qadimda odamlar birinchi gulning, birinchi ko'katning unishini bayram qilganlar. Hozir esa bu bayram sifatida bolalar orasiga ko'chgan. Bolalarni o'yin repertuarida qish faslining ketishi,

bahorning kelishini badiiy va ramziy ifoda etuvchi o'yinlar ham mavjud. Ulardan biri **“O'g'aloq”dir**. Mazkur o'yinni bolalar odatda, bahorda, tut pishi'i davrida o'ynaganlar. Shuning uchun u mavsumiy o'yin hisoblanadi. Xullas, bahorning kelishi bilan tabiatning jonlanishi, uzoq o'lkalarga qishlash uchun ketgan qushlarning qaytib kelishi, daraxtlarning, hayvonlarning uyg'onishi, kunlarning isib ketishi bolalar uchun bayram bo'lgan va undagi xursandchilik bahoriy o'yinlarda o'z ifodasini topgan. O'yinlarda yana ertaklarga xos mifologik timsollar, hayvon personajalar ham ishtirok etadi. Umuman olganda, o'zbek xalq o'yinlari mavzu doirasi rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yinlarning obrazlar olami boy va rang-barangdir. Undagi obrazlar betakrorligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik bayramlariga bag'ishlangan bayram tadbirlarini o'tkazishda yoki Vatan mavzuidagi kechalarni uyushtirishda ham bolalar o'yinlarining imkoniyatlari cheksizdir. Bu o'rinda el-yurt, ona-Vatanni himoya qilishga chorlash, xalq manfaatini asrab-avaylashga da'vat etish, Vatanga sadoqat va muhabbatning qadr-qimmatini uqtirish g'oyasi obrazli tarzda singdirilgandir. Bu g'oyalar **“Oq terakmi, ko'k terak”, “Qo'rg'on himoyasi”, “Oq sholi, ko'k sholi”, “Bayroq olish”, “Shaharlarga sayohat”** o'yinlari misolida yorqin ko'rinadi. “Bayroq olish” o'yini ham vatanparvarlik mavzuida. Zero, har bir davlatning ramziy timsoliga aylangan o'z bayrog'i va cgerbi bo'ladi. Vatan bayrog'i tinch va osuda kunlarda tik hilpirab turadi. Har bir davlat o'z bayrog'ini maxsus qo'riqlaydi. Uning dushman qo'liga tiushib qoliushiga yo'l qo'ymaydi. Chunki, bayroqning dushman qo'liga tushishi shu millat yengilganligini, inon-ixtiyori, erki, mustaqilligi qo'ldan ketganligini bildiradi. Ana shu hayotiy haqiqat mazkur o'yin mazmuniga singib ketgan. Binobarin bu o'yin bolalarga bayroqning qanaqa mohiyatga ega ekanligini, vatan bayrog'ining ahamiyatini erta anglab olishlariga zamin hozirlaydi. **“Bayroq olish”** o'yinini havo iliq bo'lgan kunlarda yoki yozda ochiq maydonlarda o'tkaziladi. O'yin uchun maxsus chiziq tortiladi. Maydonning oxiriga, chiziqdan teng tekislikda, radiusi ikki metrli doira chizilib, o'rtasiga guruhlarining bayrog'i qadab qo'yiladi. Bayroqlar turli ranglarda bo'lishi mumkin. Bunda bolalar 5-10 tadan bo'lib, teng ikki komandaga bo'linadilar. Komanda a'zolari o'zaro kelishib, kuchli, chaqqon, tadbirkor bolalardan (lashkarboshi, qo'rboshi) saylab oladilar. Bu

Ertalikda ishtirok etgan barcha obrazlar, birin-ketin kechani tark etishadi. Bolalar o'qituvchi va ota-onalar tomonidan taqdirlanadilar.

Bu ertalik orqali bolalar yurtimiz tabiati, undagi bahor munosabati bilan bo'ladigan tabiat hodisalari, kattalar mehnati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Qolaversa, bolalarda ona-tabiatni asrash, jonvorlarga ozor bermaslik, tevarak-atrofni ifloslantirmaslik, daraxt va ko'chatlarni ko'paytirish ishlariga o'z hissalarini qo'shish ko'nikmasi shaklanadi hamda bolalar Navro'z bayramini xalqimiz e'zozlab kelayotgan qadriyatlaridan biri ekanligini anglab yetadilar.

“Gullar bazmi” ertaligi

Ertalikning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quchilarida ona tabiat, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabat hamda ma'naviy-axloqiy, estetik dunyoqarashni tarkib toptirish, go'zallikni his etish ko'nikmasini shakllantirish.

(Sahna ko'rinishi. Maktab bog'i tasviri. Bog'ning hamma joyida chiroyli, turfa xil gullar ochilib turibdi. Atrof yam-yashil ko'rinishga ega. Sahna atrofiga gullarning go'zalligi aks ettirilgan plakatlar ilingan).

Boshlovchi: Gullarni parvarishlash maqsadida Gulnoza va Rayxon chelakda suv ko'tarib kirib kelishdi.

Gulnoza – Voy, Rayxon gullarimizga qara, biram chiroyli, ularga qaragan sari zavqing keladi.

Rayxon– Ha, bu mehnatimiz samarasi. Voy, mana bu joydagi gullarni kimdir uzib, payxon qilibdi-mi?

Gulnoza –Bechora gullar, bu kimning ishi ekan?

Boshlovchi: Shu payt uzoqdan Soqivoy ko'rinishdi. U gullarni ayamay uzar, oyog'i tagiga olib yanchardi.

(Qizlar baravariga)

Hoy, nima qilyapsan? Axir ularning ham joni bor. Bechoralarga rahming kelmaydimi?

Soqivoy: Qo'ysangizlarchi, bular oddiy gullar-ku!

Qizlar: Nega endi? Bu gullar atrof-muhitni tozalaydi, ham o'zining go'zalligi bilan hamma joyni bezab turadi. Seni bu gullarni uzishga, ularga zarar yetkazishga haqqing yo'q.

Ertalikni yanada qiziqarli qilish uchun ishtirok etayotgan obrazlarning har biri bolalarga topishmoq bilan murojaat qiladilar.

Dehqon bobo:

*Uyning shiftida ini
Kuylab berar har kuni
Bahorda kutib olib,
Kuzatamiz kuz kuni.*

Bolalar: Qaldirg'och.

Quyosh bobo:

*Oyna emas jimirlar,
Tek turolmas qimirlar.*

Bolalar: Bu suv

Navro'zoy:

*O'zi qizil, go'zal biram,
Qirga yozar qizil gilam.*

Bolalar: Lolaqizg'aldoq.

Lolaoy:

*Kasbi doim taqir-tuqir,
Qayda ilon ko'rsa cho'qir.*

Bolalar: bu laylak.

Bahoroy: *Bizga ruxsat endi bolalar
O'z ishimiz tomon yetaylik.
Kutmoqdadir bizni keng dala,
Vazifamiz ado etaylik.*

Bolalar: *Xayr senga go'zal tabiat,
Xayr bobo dehqonim mening,
Uchrashurmiz sen bilan har kun,
Go'zal bog'im, ona-maktabda.*

o'yinboshilar bolalar orasidan bayroq qo'riqllovchilar, himoyachilar va hujumchilarni belgilaydilar, ularning vazifasini tushuntiradilar. O'yinchilar guruhi o'zlariga biron nom qo'yib olishlari mumkin. Maydonning qaysi tomoni qaysi komandaga tegishi qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

O'yin qoidasi shunday: O'yinchilar guruhi o'z maydonlarida bir-birlariga qarab yuzma-yuz turadilar. O'yin boshlanganda raqib komanda o'yinchilari chiziqlardan o'tishi bilan maydon egalari ularni quvib borib, qo'l tekkizishga harakat qiladilar. Raqiblar esa chaqqonlik bilan o'zlariga qo'l tekkizmay, bayroqni olib qochish payida bo'ladilar.

Qo'riqchilarning qo'li tekkan raqib komandasining a'zosi asir hisoblanadi. "Asir" esa o'ziga qo'l tekkan joyda qimirlamay qotgan-cha turaveradi. Uni faqat o'z komandasining jangchilari hujum qila turib, shu jarayonda unga qo'l tekkiza olsagina qutqarib olib ketishi mumkin. Raqib komanda o'yinchisi asir tushganda qo'lida bayrog'i bo'lsa, bayroq undan tortib olinib, yana o'z joyiga qadab qo'yiladi. Bayroq qo'riqchilari ham, hujumchilar ham bayroq turgan doira ichida turib qolishlari mumkin emas, ular yugurib kirib-chiqib turishlari lozim. Raqiblar bayrog'ini birinchi bo'lib olib kelgan komanda g'olib hisoblanadi. Agar bayroq qo'riqchisi raqiblar komandirini asir olgan bo'lsa, u holda u komanda ham yutqizgan hisoblanadi. Xullas, o'yinda bayroqning qo'ldan ketishi va raqiblar qo'lga o'tib qolishi - vatanning istilo qilinishiga tenglashtirilmoqda. Chunki, "Bayroq olish" o'yini "Qo'rg'on himo-yasi" o'yini kabi bolalarni sergaklika, vataninni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga, elu-yurt himoyasiga shaylanishga da'vat etadi. Mana shunday o'yinlarni bayram tadbirlarida bajarish orqali bolalar vatanparvar, birovning yeri yoki mulkiga ko'z olaytirgan, uni egallashga intilgan kimsalarga qarshi kurash uchun maydonga tushuvchi, o'z yerini saqlab qolishga intiluvchi elsevarlar jo'shqin qahramon obrazini yaratadilar. Bu tarzdagi bolalar o'yinlari esa bayram tadbirlarini takomillashtirishga va uning tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu boradagi bizning maqsadimiz ham bolalar oyinlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish orqali bayram tadbirlarini tashkil etishni takomillashtirishdir. Zero, o'yinlar hamma zamonlarda ham yosh avlodni tarbiyalashda pedagogik vosita sifatida xizmat qilib kelgan.

TARBIYABIY ISHLARNING TURLARI VA YO'NALISHLARI

2.1. Ertaliklar – tarbiyaviy ishlarining asosiy shakli sifatida

Mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlardan tashqari tarbiyaviy ishlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim va tarbiya jarayonining uzluksizligiga salmoqli hissa qo'shib boriladi. Tarbiyaviy ishlarining vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqishini uyg'otish, qolaversa, ularning hayotini zavq va shavqqa to'ldirishdir. Xuddi mashg'ulotlarda bo'lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda ham tarbiyachining vazifasi mas'uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas'uliyat ularning doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, ijodiy mehnatni talab qiladi.

Bolalarning faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati - bola kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. Bola kundalik ishlarining davomi sifatida tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tashkil qilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda bolalarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini ustirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi. Tarbiyaviy ishlar tarbiyachilarning yillik ish rejalarida aniq ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari belgilangan bo'lishi lozim. MTMda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar bolalar hayoti bilan ya'ni ularning bog'cha ostonasiga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlanadi. Mustaqillik bayrami, Kuz bayrami, Konstitutsiya kuni, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug'ilgan kunlari, 8-mart, Navro'z bayrami, gullar bayrami kabilar. Mana shunday

Quyosh bobo davraga chiqib, bolalarga savol bilan murojaat qiladi: Bolalar sizga bir savolim bor, bahorda qanday ishlar bajariladi?

Bolalar: Don, chigit, daraxt, gullar, sabzavotlar ekiladi.

Navruzoy: Bolalar, qaranglar, kim tashrif buyurayapti.

Bolalar: Dehqonbobo kelyapdilar. Assalom Dehqon bobo!

Dehqonbobo: Vaalaykum assalom, jajji nabiralarim. Bugundan boshlab yurtimizda mehnat pallasi, jo'shqin hayot vaqti boshlandi. O'zim bilan sizlarga hamrohim, yaqin do'stim ketmonjonni, chigit polvonni, bug'doylarni olib keldim.

Bug'doyoy: Men har doim azizman,
Lik-lik to'la mag'izman.
Oltin kabi tovlanib,
Qush kabi sollolanib,
Bobo dehqon bilan birga
Shoshildik davrangizga.

Chigitpolvon: O'zim kichik chigitman
Juda polvon yigitman!
Vatanim mening tuproq.
Kuch olar tanim har choq.

Dehqon bobo: *Balli aziz bug'doyim,*
Jajji yigitcham balli.
Sen mening iftixorim
Shon-shuhrat va madorim.

Bahoroy Shoir O'tkir Rashidning "Vatanim" she'rini aytadi:

Chaman-chaman gullarga,
Sayroqi bulbullarga,
Ko'kni quchgan uylarga,
Baxt keltirgan to'ylarga,
Quvnoq va sho'x kuylarga,
Joydir go'zal Vatanim,
Boydir go'zal Vatanim.

Lola: *Tinglang, bordir bir savol,
Urinib ko'ring bir bor,
Do'stlaringiz kim erur,
Kuylar soz navolarda?*

Bolalar: Bular bizning do'stlarimiz - qushlar, hayvonlardir.

Bahoroy: Keling bo'lmasa bolalar ularni qarshi olaylik.

Davraga qushlar, kapalak, hayvonlardan: ayiqpolvon, olmaxon, quyonchalar kirib kelishadi. Hamma qarsak chaladi.

Bolalar Zafar Diyorning "Kapalak" nomli she'rini qo'shiq qilib kuylashadi:

*Hoy kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdek;
Muncha shoshib uchasan,
To'xta so'zlayin andak*

*Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdek;
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andak!*

Hayvonlar orasidan Ayiqpolvon chiqib, bir dam kerishib oladida:

*Uxlabman rosa to'yib,
Ovozingiz eshitib,
Sergak tortibman, shu dam,
Qarasam, kelib Bahor,
Tulib oqmoqda anhor.
Qani asal yalasam,
Mazza qilib quvnasam.*

Qushlar Zafar Diyorning «G'unchalar» she'ridan parcha aytishadi:

*Vatan agar bo'lsa bir chaman,
Siz qo'ynida xandon g'unchalar.
Ay siz mening kichik do'stlarim,
Vataningiz sevar shunchalar.*

tadbirlar bevosita bolalarda vatanga e'tiqodni tarbiyalash ishlari bilan bog'liq holda olib boriladi. Bu tadbirlarga material tanlashda eng qimmatli manba bo'lib milliy qadriyatlar namunalari hisoblanadi.

Tarbiyachi tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim:

- tarbiyaviy tadbir aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;
- tarbiyaviy tadbir bolaning yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- har bir tarbiyaviy tadbir mashg'ulotlarda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- tadbir orqali bolalarda jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanib borilishi darkor.

Tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish;
2. Tadbir yuzasidan bolalarga tushuncha berish;
3. Tadbirni tashkil qilish jarayonida bolalarning barchalarini ishtirok etishini ta'minlash;
4. Bolalarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash;
5. Tadbirni amalga oshirish;
6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash.

Bosqichlarning har biri tarbiyachi tomonidan oldindan chuqur o'rganilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodik tavsiyalarni bayon etishni lozim topdik:

1. Bolalarning turli mavzudagi tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlarga, ularning ahamiyatiga, ijtimoiy xarakteriga e'tibor berish kerak (masalan, ertak va maqollar vositasida; tarixiy mavzular yoki milliy bayramlar: "Navro'z", "Mustaqillik kuni", "Oltin kuz bayrami" va shu kabilar);
2. Yaxshi ishtirok etgan bolalarni rag'batlantirish;
3. Tarbiyaviy tadbirlar orqali bola shaxsidagi axloqiy sifat-larni rivojlantirish yo'llarini izlash;
4. Tarbiyaviy tadbirlarga rahbarlik qilishda milliy qadriyatlar ta'siri vositasida ba'zi bolalarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish;

5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bunday tadbirlarda zo‘r ishtiyok bilan qatnashadilar. Ba‘zan hamma bolalar ham birdek talabga javob bera olmaydilar, shu sababdan ularning ishtirokiga asta-sekinlik bilan erishish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir tarbiyachi eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o‘rganishi, uning natijalariga jiddiy e‘tibor berishi va bu bilan bola shaxsiga ijobiy ta‘sir etishga intilmog‘i, ularda vatanga e‘tiqod, milliy g‘urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo‘llarini izlamog‘i lozim. Tarbiyachi tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishdan oldin u haqida bolalarga tushunchalar berishi, vatan haqidagi she‘rlarni yod oldirishi, bolalarning o‘zlari chizgan suratlar namoyishini tashkil qilishi, mavzuga mos sahna ko‘rinishlarni tayyorlashi kerak bo‘ladi.

Ertaliklarni bolalar bilan birgalikda nishonlash, avvalo ularda ona-vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g‘urur va iftixor hissini tarbiyalaydi. Bu kabi tarbiyaviy ishlarning natijasida bolalarning lug‘at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi mashg‘ulotlarda olgan bilimlari mustahkamlanadi, xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bolalar birdamlikka, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasiga ham ega bo‘ladilar.

Xuddi shunday ijobiy sifatlarni bolalarda tarbiyalab borishda bayram ertaliklarning o‘z o‘rni bor.

Demak, ertaliklar bolalar uchun juda qiziqarli, tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan tarbiya vositalaridan biridir. Ertaliklarda deyarli barcha bolalar ishtirok etadilar. Ularga tayyorgarlik ko‘rishning o‘ziyoq bolalarda qiziqishni uyg‘otadi. Bolalar ertalik munosabati bilan she‘r, qo‘shiqlar yodlashi, raqs tushishi va albatta milliy qadriyatlarimiz namunalari bilan tanishishi har tomonlama foydalidir.

Bolalar bilan o‘tkaziladigan ertaliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Bayram ertaliklari.
2. Mavsumiy ertaliklar.
3. Buyuk allomalar tavallud kunlari va muhim sanalarga bag‘ishlangan ertaliklar.

Bahoroy: Qani bolalar ularni qarshi olaylikchi. Bolalar “Boychechak” qo‘shig‘ini ijro etadilar, gullar birin-ketin kirib kela boshlaydi.

Bahoroy: Bolalar, siz yurtimizda o‘sadigan yana qanday gullarni bilasiz?

Bolalar: atirgul, gulsafsar, qizgaldoq, karnaygul va boshqalar.

Navro‘zoy: Bahor faslida qanday tabiat hodisalari bo‘ladi?

Bolalar: Yomg‘ir, shamol, do‘l, momaqaldiroq, chaqmoq.

Binafsha: Bolalar bir oz sovuq yegandek bo‘ldim, kelinglar saxiy va mehribon Quyosh bobomizni chaqira qolaylik.

Bolalar: Quyosh bobo, mehribon bobo!

Quyosh bobo: *Shu yerdaman bolalarim,
Jajji, sho‘x lolalarim,
Yordamga shayman har dam,
Kelurman, ildam, ildam,
Sovuq yebsiz-ku bir oz,
Isining, bulursiz soz.*

Navro‘zoy: *Bolalar quloq tuting,
Tashqarida nimadir,
Qilmoqda, shitir-shitir.*

Bolalar: Bu yomg‘ir (hamma «Yomg‘ir yog‘aloq» qo‘shig‘ini kuylaydi).

Lola: *Savolim bor sizlarga
Siz jajji yulduzlarga,
Tog‘da nega erir qor,
Nega to‘lib-toshar anhor?*

Bolalar: *Chunki, Bahor keldi.*

Chuchmoma: *Siz aziz bolajonlar,
Topag‘on qaqajonlar,
Bilim egallab rosa,
Bo‘libsiz aqli raso.*

Bolalar: Rahmat, senga Bahoroy.

Bahoroy: Aziz mehmonlar, bugun “Navro‘z” bayrami. Keling go‘zal Navro‘zoyni qarshi olaylik (hamma qarsak chaladi), sahnaga boshiga gulchambar kiygan, qo‘llariga gullar dastasini ko‘targan Navro‘zoy kirib keladi.

Bolalar barchalari jo‘r bo‘lib, Navro‘zoyni qarshi olishadi:

*Salom senga Navro‘zoy!
Fasli bahor elchisi,
Xush kelibsan davraga
Tabiat darakchisi.*

Navro‘zoy:

*Salom, aziz bolalar,
Shuh-shodon durdonalar,
Salom keltirdim sizga
Tabiatim, onamdan.*

Bahoroy:

*Bahor kelsa yashnar olam,
Yashnar dillar, sho‘x ko‘ngillar.
O‘zbekiston yurtim bo‘ylab,
Sayrar xo‘shovoz bulbullar.*

Navro‘zoy Uyg‘unning «Bahor» she‘rini aytadi:

*Suvlar shildirab oqar,
Qo‘shig‘i dilga yoqar.
Bizga shodlik keltirding,
Salom senga, gulbahor.*

Hamma qo‘shiq aytishadi:

*Binafshajon binafsha,
Yurishlaring chiroyli.
Davramizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.*

Navro‘zoy: Rahmat aziz bolalar, ajoyib qo‘shiq aytdingizlar. Men o‘zim bilan birga bahor elchisi bo‘lmish boychechak, binafsha, chuchmomaoylarni olib kelganman.

4. Sport ertaliklari.

Bizningcha ertaliklar quyidagi tartibda o‘tkazilsa, yaxshi natija beradi:

- ertalikning mavzusini tanlash va mavzu yuzasidan materiallar to‘plash;
- ertalikning dasturini tuzish;
- ertalikka mehmonlar taklif etishni rejalashtirish;
- ertalik o‘tkaziladigan joyini aniqlash va bezash;
- ertalikni muvaffaqiyatli o‘tkazish va qatnashchilarni rag‘batlantirish.

Ertalik bayramlarini o‘tkazishda tarbiyachilar oldiga quyidagi pedagogik talablar qo‘yiladi:

1. Tarbiyachi har bir ertalikni bolalarning yoshiga mos holda, jamiyatning ma‘lum bir dolzarb mavzulari doirasida tashkil etilishiga e‘tibor qaratishi darkor.

2. Ertalik tarbiyachidan maqsadni (tarbiyaviy, ta‘limiy, rivojlantiruvchi) aniq qo‘ya olishni talab etadi.

3. Ertalikni muvaffaqiyatli va qiziqarli o‘tkazish uchun tarbiyachida kreativlik bo‘lishi lozim.

4. Ertalik ssenariysini tuzishda rang-baranglikka e‘tibor qaratish kerak.

5. Ertaliklar bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilishi (masalan, ular orqali bolalardagi tevarak-atrofnii bilishga bo‘lgan ehtiyoj qondirib borilishiga harakat qilishi) darkor.

6. Tarbiyachining nutqi bolalar uchun tushunarli, sodda va mazmunli bo‘lishi lozim.

7. Tarbiyachi-pedagog jismonan sog‘lom, uzoq vaqt tik oyoqda tura oladigan bo‘lishi kerak.

8. Ertaliklarni takshl etishda ota-onalar va bog‘cha ma‘muriyati bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Maktabgacha ta‘lim muasssalarida bolalar bilan “Mustaqil ona diyor”, “Jajji huquqshunos”, “Yangi yilim, yaxshi yilim”, “Mehribonim onajon”, “O‘lkamda Navro‘z”, “Mehrijon bayrami”, “Gullar bayrami”, “Oltin kuz” va boshqa ertaliklarni uyushtirish mumkin.

2.2. Ko'rik tanlovlarni tashkil etish metodikasi

Tarbiyaviy ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida bolalar o'rtasida savol-javob kechalarini o'tkazish maqsadga muvofiq. Tarbiyaviy ishlar jarayonida bunday tadbirlarning o'tkazilishi alohida ahamiyatga ega. Bunda birinchidan, bolalarning bo'sh vaqtlari samarali tashkil etilsa, ikkinchidan, ularning mashg'ulotlar davomida olgan bilimlari mustahkamlanadi. Uchinchidan esa, bolalarda uyushqoqlik, bilim olishga havas yanada ortadi. Ana shunday bellashuvlardan biri sifatida "Mening ona – vatanim" nomli mavzuda o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda bolalar ikki guruhga ajratib olinadi, ularning har taraflama tengligiga e'tibor beriladi. Bu bellashuvni birinchi bosqichda guruh o'rtasida, keyinchalik, guruhlar o'rtasida o'rtasida ham uyushtirish mumkin. Bu tadbirni tayyorlash uchun kamida bir oy talab qilinadi. Har ikkala tomon kecha o'tkaziladigan kunni belgilab olgach, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab direktori va yordamchilari bilan birgalikda kechaning shartlari belgilab olinadi. Bu bellashuv shartlarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Guruhlarning o'zaro tabrigi. (tabrik tanlangan mavzu asosida tuziladi);

2. Mavzu yuzasidan shoirlarning she'rlarini ifodali aytib berish, har bir guruhdan bitta bola o'qiydi;

3. Yosh rassomlar ko'rigi (ma'lum vaqt davomida har bir guruhning bittadan yosh rassomi tanlangan mavzu yuzasidan manzarasi aks etgan suratni chizib berishlari shart);

4. Guruh ishtirokchilarning o'zbek xalq maqollari aytishuvi (bellashuv tanlangan mavzu asosidagi maqollardan iborat bo'lishi, unda bellashuvda guruhning barcha ishtirokchilari qatnashadalar);

5. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz aks etgan ko'rinish (tanlangan mavzu vatanga, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmatni, e'tiqodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi shart. Ko'rinish davomida o'zbek xalq laparlaridan, allalaridan, yor-yorlaridan foydalanish inobatga olinadi);

6. Savollarga tez javob qaytarish o'yini. (Savollar tanlangan mavzu asosida tuzilishi, masalan, O'zbekiston, uning tarixi,

tantanaga tayyorgarlik ko'rishning o'ziyoq bolalarga benihoya zavq-shavq bag'ishlaydi. O'qituvchining bayramga atab devoriy gazeta chiqarishi, unda bahor, tabiatning tasvirlanishi ham bolalarda ko'tarinki kayfiyatni hosil qiladi. Biz yuqorida aytganimizdek, ertalik munosabati bilan bolalarning she'r yodlashi, qo'shiq va raqslarni, bahor, tabiat, hayvonlar to'g'risidagi topishmoq, tez aytishni o'rganishlari ertalikni qiziqarli, ta'sirchan o'tishiga katta yordam beradi. Ertalik mazmunini boyitadigan obrazlar: Navro'zoy, Dehqonbobo, Gullar, Bahoroy, Quyosh bobo, hayvonlardan: Ayiqpolvon, Quyuncha, Olmaxon, Qushlarning ijiroki bayramga ko'rk bag'ishlab, bolalarning qiziqishini yanada oshiradi. Ertalikka ota-onalar va boshqa mehmonlar taklif qilinadi. Boshlang'ich sinf bolalari bilan Navro'z bayramiga bag'ishlab quyidagicha ertalikni tashkil qilish mumkin.

Ertalikning maqsadi:

1. Boshlang'ich sinf bolalarida milliy qadriyatlarimizga nisbatan qiziqish va hurmatni tarbiyalash.

2. Navro'zning kirib kelishi bilan tabiatga bo'lgan munosabatni o'zgarishi, yoshlar qalbida tabiatga bo'lgan mehrni o'yg'otish va kishilar mehnatidagi o'zgarishlarga doir bilimlarni berish.

3. Ona-tabiatni asrash, insonlarni bir-biriga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lishni tarbiyalash iboratdir.

Xonada nafis musiqa sadosi yangrab, sahnaga Bahoroy chiqib keladi.

Bahoroy:

*Salom aziz bolalar,
Mehribon onajonlar,
Kalbi nur va ilmga,
Mehr hamda bilimga,
To'la mening ustozim,
Salom keltirdim sizga*

deb, barchaga ta'zim qilib, Bahoroy so'zida davom etadi: Aziz bolalar, qadrli ota-onalar, muallimlar barchangizni bahor bayrami "Navro'zi olam" bilan muborakbod etaman. Men sizlarga qiradirlar, keng dalalar, bog'lar, do'stlarimiz bo'lmish hayvonlar, qushlar nomidan qizg'in tabrik va salom keltirdim.

*Imomlikka o'tgay faqat Alisher.
Ha, yolg'iz she'r qoldi, boshqasi, abas.
Yetti iqlim aro doston naqlingiz.
Ne baxt, parchin bo'lib toj degan qafas,
Bizga yetib keldi olmos aqlingiz.
Ayting, ne topdingiz siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho'rishga to'lib,
Shoirsiz, yaxshisi qolingiz, Mirzo,
Mushfiq yurtingizda bir shoir bo'lib!...*

Sahna ortida o'tirgan Bobur Mirzo o'rnidan turib keladi va minnatdorchilik bildiradi:

*Assalom, yosh avlod, salom bolajon,
Menga armon bo'lgan vatan Andijon.
Olisdan siz tomon boqib nigoron,
Jismimda sog'inchdan qolmadi birjon.*

Rahmat, mening ishtiyoqmand, serg'ayrat avlodim! Yurtingizni gullatib – yashnatib, mening orzularimni amalga oshirganingiz uchun sizga tashakkurlar aytaman! Bugungi shijoatingiz va g'ayratingizni ko'rib quvondim va amin bo'ldimki, sizlar kelajakda bundanda buyuk davlat egalari bo'lasizlar.

Bizni unutmaganingiz, yodingizda tutganingiz uchun rahmat, sizlarga. Hamisha ajdodlarga munosib avlod bo'ling!

1-boshlovchi: Mana, shuning bilan buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud ayyomiga bag'ishla tashkil etilgan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi.

2-boshlovchi: Ulug' bobomizning xotirasi abadiy dilimizda, o'lmas ijodi esa tilimizda muhrlansin! Xayr, sog' bo'ling!

“Navro'zi olam” ertaligi

Tarbiyaviy tadbirlarda bu ishlarning davomi sifatida “Navro'z bayrami” ertaligini tashkil qilish mumkin. Bu borada boshlang'ich sinf o'qituvchilari Navro'z, bahor haqidagi she'rlarni ifodali o'qib berib, bolalarni bahor kelganidan ogoh etishi va bu tadbirga ularni jalb etishlari mumkin. Ertalikda barcha bolalarni ishtirok etishini ta'minlash lozim. Shuningdek, musiqa o'qituvchisi yordamida bolalarga navro'z, bahor, vatan, tabiat, haqidagi alohida va guruh ishtirokida aytiladigan ashulalar o'rgatiladi. Mana shu

boyliklari, tabiati to'g'risida bo'lsa, quyidagi savollardan foydalanish mumkin):

- O'zbekistonning poytaxti qayer?
- O'zbekistonda nechta viloyat bor?
- O'zbekiston madhiyasi qachon va kim tomonidan yozilgan?
- O'zbekiston madhiyasi musiqasini kim bastalagan?
- O'zbekiston bayrog'ida nimalar tasvirlangan va qanday

ranglar mavjud?

- O'zbekiston gerbida nimalar tasviri tushirilgan?
- Amir Temur kim bo'lgan?
- Bulbul chamanni sevar,

maqolining davomini ayting?

- Alisher Navoiy qachon va qayerda tavallud topgan?
- Shiroq kim bo'lgan?
- Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?
- Qarshi shahridagi tarixiy obidalarini ayting?
- Nega ona – vatan deyiladi?
- Jaloliddin Manguberdi kim?
- Navro'z so'zining ma'nosini ayting?

7. Guruhlarning erkin sharti.

Mana shunday bellashuv bahonasida bolalar vatan, ona tabiat, buyuk allomalar, do'stlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'satish, oliyanoblik, to'riso'zlik, mehnatsevarlik to'g'risidagi ko'plab she'r va maqollarni yod oladilar, qo'shimcha manbalar bilan tanishadilar.

Bu kabi bellashuv orqali bolalar dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash bilan birga, yuqorida aytganlarimizdan tashqari, o'zlariga nisbatan sinf oldidagi ma'suliyatni his qiladilar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shartlar guruh a'zolari-dan astoydil tayyorgarlik ko'rishni, vatanimiz haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishni, savollarga javob berish uchun esa darslik va ko'llanmalarga murojaat qilishni, vatanga nisbatan e'tiqodni, mehr-muhabbatni namoyon qilishlarini talab qiladi.

Bolalar bilan bu kabi ishlarga tayyorgarlik ko'rishda ularga xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilishlarini (albatta tarbiyachi va ota-onalar ko'magida), shoirlarning vatan haqidagi she'rlarini yod olishlari, sayohat qilishlarini uyushtirish shart. Chunki, mana shu ishlar orqali bolalarning tassavvur dunyosi kengayib boradi.

2.3. Ekskursiyalar – ommaviy tarbiyaviy ishlarning turi sifatida

Tarbiyaviy ishlarning barchasi ham bolalarda barkamollik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular bir-biridan mazmun-mohiyati, vazifasiga ko'ra farqlanadi. Huddi shunday ekskursiyalarning vazifasi ham ko'p qirralidir. Ekskursiyalar – tarbiyaviy ishlarning ommaviy turi sifatida keng qo'llanilib kelinadigan usuldir. Ayniqsa, bunda bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqiladigan ekskursiyalarning ahamiyati katta. Sayohat davomida bolalarning bevosita tabiat haqidagi bilimlari, tushunchalari kegayadi. Bolalar kuzatish jarayonida tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va tabiat hodisalarini, o'simliklar va hayvonot dunyosini, kishilar mehnatini qadrlashni o'rganadilar. Shu bilan birga kuzatish jarayonida bolalarda vatanga nisbatan e'tiqod, onataniyatni asrash, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, tarixiy obidalarni o'rganishga qiziqish ko'nikmalari shakllanadi. Ekskursiyalar kunining e'lon qilinishiyoq bolalarda xursandlik kayfiyatini uyg'otadi. Chunki ekskursiyalar uyushtirish orqali bolalarda mashg'ulotlar jarayonida hosil bo'lgan zerikish, toliqish alomatlarini bartaraf etiladi. Bu yoshda bolalarning tabiat va tevarak – atrofni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ustun bo'ladi. Ularning bu ehtiyoj va qiziqishlari ekskursiyalar yordamida qondirib boriladi. Ekskursiyalar maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy shakllaridan biri hisoblandi. Unda o'rganilayotgan obekt va hodisaning bo'lgan va ro'y berayotgan joyida kuzatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Ekskursiyada bolalar o'rganayotgan obyektini bevosita o'z ko'zlari bilan ko'rib o'rganish, shuningdek o'rganilayotgan obyekt va hodisani asli holidagi, o'z o'rnida kuzatish, tekshirish imkoniyatlari tug'iladi. Kuzatiladigan obyektlarning ko'pligi, ko'lamining kengligi va xilma xilligi jihatidan MTMda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotining ekskursiya bazasi juda katta. Ekskursiya bolalarda tabiat, bizni o'rab turgan olam haqidagi tasavvur va aniq tushunchalar hosil qiladi. Bolalarning tabiatda o'tkazgan bir kuni bog'chada o'tkazgan bir necha kundan ko'ra samaraliroq bo'lishi kuzatilgan. Ekskursiya bolalarni faollashtiradi, ularda kuzatuvchanlikni shakllantiradi. Bolalar ekskursiya vaqtida

2-boshlovchi: Endi Bobur g'azallariga bastalangan "Yaxshilik" qo'shig'ini tinglaymiz.

Qo'shiq ijro etiladi.

1-boshlovchi: Shoir buyuk mutafakkir Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik, yorga muhabbat g'oyalari bilan sug'orilgan ajoyib asarlar bitdi.

2– boshlovchi: U axloq – odob mavzusiga e'tiborni qaratdi. Yaxshilikni ulug'ladi, xalq manfaatlarini o'yladi. Inson qadr – qimmatini yuqori tutdi. Odamlarni kamtarin, ko'rkam fazilatlar egasi bo'lishga da'vat etdi.

1-boshlovchi: Endi navbat Bobur g'azallariga.

O'quvchilar Bobur g'azallaridan namunalar o'qishadi.

2–boshlovchi: Endi navbatni buyuk bobokalonimizga bag'ishlab yozilgan she'rga beramiz. Marhamat.

Sahnaga 7 nafar o'quvchi chiqib she'rni o'qishadi:

*Menku, oddiy odam,
Shundoq bo'lsa ham
Shukr, bas deguncha g'animlarim bor.
Shart emas ularga ta'rif chinakam,
Biri jununsifat, birovi hushyor.
Biroviga yoqmas jindek jur'atim,
Biroviga yoqmas men yurgan yo'lak,
Nogoh biror joyda chiqsa suvratim
Biri uxlay olmay qiynalsa kerak.
Biz shunday o'tamiz,
Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.
Hayotning mana shu burchidan turib,
Men sizni o'yladim hazrati Bobur.
Siz – zobit, dastini cho'zgan dunyoga,
Siz – shoir, mangu bir alanga yoqqan.
Nainki bandalar, sizning siymoga
Ne-ne saltanatlar kek bilan boqqan.
Bahodirlik ichra yor sizga Humoy,
Siz ulug' zotlarning izin bosgan er.
Nazmiy sajdagohda sizga hoynahoy,*

O'quvchilar Bobur ruboiylaridan namunalar aytishadi:

*Ahbob, yig' ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx bu durur, tengri uchun,
Bir – birini necha kuni g'animat tutungiz.*

*Bu xasta ko'ngil erdi, visoling ila xush,
Jonim ham erur sening jamoling ila xush.
Hijron g'ami garchi asm noxushdir,
Fikring bila shodman, xayoling bila xush.*

*Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Sarrishtai ayshdin ko'ngulni zinhor
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.*

*Sen gulsenu men haqir bulbuldirmen,
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldirmen.
Nisbat yo'qdur, deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elga, vale senga quldurmen.*

1-boshlovchi: Endi tomoshabin o'quvchilar bilan sovrinli viktorina o'tkazib olamiz.

Savollar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning nechanchi avlodi sanaladi? *Javob:* Beshinchi
2. Bobur She'rlarining umumiy hajmi qancha? *Javob:* 400 dan ortadi.
3. Bobur so'zining ma'nosi nima? *Javob:* Sher.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur qachon va qayerda tug'ilgan? *Javob:* 1483-yil 14-fevral Andijonda.
5. Istedodli shoir Boburning onasini ismi nima bo'lgan? *Javob:* Qutlug' Nigorxonim.
6. Mirzo Bobur Hindistonni qachon zabt etdi? *Javob:* 1526-yili
7. Zahiriddin Muhammad Boburning eng katta asari bu? *Javob:* Boburnoma.

tabiat va atrof bilan tanishar ekanlar, ularning o'z ona vataniga bo'lgan muhabbati ortadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar bilan tashkil etiladigan ekskursiyalar bolalarda tabiatni ongli va to'liq bilib olishga imkon beradi. Tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ko'rilgan obyekt yoki hodisaning bollar tomonidan faol va ongli o'zlashtirilishiga sabab ularda ko'rgazmalilik yuqori darjada bo'ladi.

Ekskursiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: yon atrof bilan tanishuv, o'lkashunoslik manbalariga sayohat, muzey, tarixiy joylarga borish, kishilar mehnatini kuzatish va boshqalar. Dastlab bolalar yon atrof bilan tanishtirish ya'ni bog'cha hovlisi, oshxona, musiqa zali va boshqalar bilan tanishtiruv amalga oshiriladi. Tarbiyachi-pedagoglar ekskursiya paytida bolalarni tartib-intizomga, o'zini tutish qoidalariga o'rgatadi, safda yurish, oshxona va guruh xonasini ozoda tutish kabi ko'nikmalarni shakllantib boradi. Asta-sekin ekskursiyalarning ko'lami kengayib boradi. Bu jarayonda asosiy rolni tarbiyachi bajaradi. Chunki, tarbiyachi ushbu ekskursiyalar natijasida bolalarda vatanga e'tiqod tuyg'usini shakllantira olishi, milliy qadriyatlarimizning mazmun, mohiyati haqida tushuncha berishi kerak bo'ladi. Buning uchun pedagoglarning zimmasidagi vazifalar quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etamiz:

- tarbiyachi-pedagog o'zi yashab turgan voqea, shahar, qishloq haqida to'liq bilimlarga ega bo'lishi;
- tarbiyachi-pedagog rahbarlikni qo'lga olgan holda, bolalar diqqatini kuzatilayotgan obyektga qarata olishi;
- ekskursiyaning maqsadi, rejasini ishlab chiqishi;
- ekskursiya davomida bolalarni milliy qadriyatlarga hurmatni, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalab borishi;
- uyushtirilayotgan ekskursiya orqali Vatanga muhabbat, sadoqat, ona-vatanni asrash, vatanga e'tiqodni tarbiyalab borish ko'zda tutiladi.

Shu bilan birgalikda tashkil etilayotgan ekskursiyaning muddati oldindan belgilab qo'yilishi hamda bundan ota-onalar xabardor bo'lishi lozim. Ekskursiyalar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik ko'rish;

2. Ekskursiyani o'tkazish;
3. Taassurotlarni xulosalash, yakunlash.

Ekskursiyalarni tashkil etishning barcha qonun-qoidalariga amal qilgan holda bolalarning o'zlari yashab turgan joylardagi o'lkashunoslik manbalariga sayohatni uyushtirish mumkin. Masalan, "Ona tabiatni sevamiz" mavzusiga bag'ishlab sayohat uyushtirish maqsadga muvofiq. Bunda avvalo sayohatning maqsadi belgilab olinadi.

Sayohatning maqsadi: Tabiatdagi o'zgarishlar, fasllar almashinuvi, ob-havo, o'simlik va hayvonot dunyosi, kishilar mehnati, tabiatdagi go'zal manzaralarning chiroy ochib turishini bolalarga ko'rsatish va bundan bolalarda o'qitish va tabiatga nisbatan mehr-muhabbatni hissini tarbiyalashda unumli foydalanish.

Bu kabi sayohatlar qisqa vaqt davom etsa-da, bolalar undan katta zavq oladilar. Bolalarning tabiat hodisalariga nisbatan qiziqishlari yanada ortadi. Bahor faslida dov-daraxtlarning gullashi, yam-yashil tusga kirishi, qishda esa butunlay boshqacha manzara hosil bo'lishi, ya'ni tabiatning oppoq tusga kirishi yanada bolalar hayratini oshiradi. Sayohatlar jarayonida gul va hayvonlarni tarbiyachi tomonidan tilga kirishi bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Sayohat davomida bolalar bog'bon mehnati bilan ham tanishadilar va bu bilan ular kattalar mehnatini qadrlashga o'rganib boradilar.

Sayohat tassurotlari tarbiyachi-pedagoglar tomonidan xulosalanadi. Xulosalash yakunida tarbiyachi ona tabiatning inson hayotidagi ahamiyatiga yana bir to'xtaladi. Ayniqsa, bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Ekskursiyada faol bo'lgan, jamoat joylarida o'zlarini yaxshi tutgan bolalar rag'batlantiriladi.

avlodining iste'dodli vakili, atoqli shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining tavallud ayyomini nishonlashga yig'ilganmiz.

1-boshlovchi: – Shoh va shoirning suronli hayot yo'li, uning Hind tuprog'ida amalgam oshirgan buyuk ishlari, jahon adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi birin – ketin gavdalanadi.

2-boshlovchi: Ha, Mirzo Bobur yashaganiga garchi 500 yildan oshgan bo'lsada uning adabiy va ilmiy merosi o'z qadrini zarracha ham yo'qotmagan. Buni biz tadbir davomida yana bir bor shohidi bo'lamiz.

1-boshlovchi: Zahiriddin Muhammad Bobur shoh va shoir bo'lib uning ismi "Sher" degan ma'noni anglatadi.

2-boshlovchi: Chindan ham u "Sher" degan nomga munosib shaxs edi. U tariximizning murakkab bir davrida yashadi.

1-boshlovchi: Yurt jangu jadallar ichida qolgan edi. O'z yurtiga sig'may qolgan temuriyzoda Hindistonga bosh olib ketdi.

2-boshlovchi: Va u yerda buyuk saltanat o'rnatib o'z jasorati va adolati bilan olis hind xalqi qalbidan joy oldi, mehrini qozondi.

1-boshlovchi: Mirzo Boburning avlodlari hind diyorida 300 yildan ortiqroq hukmronlik qildilar.

2-boshlovchi: Zahiriddin Muhammad Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go'zal g'azallar yozdi, ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko'rgan-kechirgan voqealari haqida "Boburnoma" asarini yozib qoldirdi.

1-boshlovchi: Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go'zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan va musiqi ilmi haqida asar yozgan shoir edi.

2-boshlovchi: Mirzo Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'iladi. Uning otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutluq Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

1-boshlovchi: Bo'lajak shoir otasining bevaqt erta vafoti tufayli 12 yoshida taxtga o'tiradi.

2-boshlovchi: Mirzo Boburdan bizga juda ko'plab bebaho asarlar yetib kelgan.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUDIGA
BAG'ISHLANGAN TADBIR ISHLANMASI
"BOBUR KABI SEVING VATANNI"**

Parda ochiladi. Sahna tarixiy ko'rinishda yasatilgan. Bobur mirzo taxtga xomush, qo'lini peshonasiga qo'yganча o'tiribdi. Sekin o'rnidan turib, yurgan holatda quyidagi ruboiyni o'qiydi:

*Tole yo 'qi' jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netaayin, ne yuz qarolig' bo'ldi!*

- G'urbat orzusiga itoat qilgan kezlarim yosh edim, g'ayratli edim. Hindni olaman, deb farzandimga Hindol deb nom berdim. Qilichim zo'ri bila Hindni fath etdim, quvg'indilarga Vatan beray, dedimu...ammo...ammo mana, umrimning xazon faslida angladimki, ularga Vatan emas, boshpana bergan ekanman... Vatan o'sha yoqlarda qolgan ekan...

Ehh, Vatanim, seni qanchalar sog'indim-a! Qani endi bir bor yurtimni ko'rsam, ona xalqimning diydoriga to'ysam... Qachonlardir xalqim mening nomimni yodga olarmikin yoki mendek bir vatangadoni unutib yuborisharmikan?

Shu payt sahnaning ikki chetidan boshlovchilar chiqib kelishadi.

1-boshlovchi: G'am chekmang, bobojon! Biz sizga bugungi mustaqil, hur vatanimizni ko'rsatamiz, Xalqimiz bilan uchrash-tiramiz.

2- boshlovchi: Ha- ha aslo kuyunmang! Bugun siz bilan olis kelajakka sayr qilamiz va siz hamon yodingizni esga olib, ash'oringizni tildan qo'ymagan avlodingizni ko'rib quvonasiz, degan umiddamiz.

1- boshlovchi: Qani, ketdik unda!

Bobur Mirzo taxtiga borib o'tiradi. Boshlovchilar o'rtağa chiqishadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, qadrdon tengdoshlar!

2-boshlovchi: – Bugun biz sizlar bilan bu yerda temuriylar

**III.TARBIYABIY ISHLAR SSENARIYLARIDAN
NAMUNALAR**

**3.1.Ertaliklardan namunalar
"Sohibqiron Amir Temur bobomiz" nomli
ertalik syenariysi**

(Ertalik buyuk sarkarda va davlat arbobi
Amir Temurning tavallud kuniga bag'ishlab o'tkaziladi)

Ertalik maqsadi:

a) o'quvchlarini sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyati, uning Markaziy Osiyo davlatining rivojlanishiga qo'shgan hissasi, ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan tanishtirish, bilimlarini mustahkamlash, tushunchalarini kengaytirish;

b) bolalarda ajdodlar merosiga hurmat, allomalar hayoti va asarlarini o'rganishga ishtiyoq hissini shakllantirishdan iborat.

Tadbir o'tkaziladigan joy bayramona bezatilgan. Markaziy devorda sohibqiron Amir Temur portreti va uning yoniga katta harflarda yozilgan:

*"Biz kim - mulki turon
Amiri Turkistonmiz
Biz kim millatlarning
Eng qadimi va eng ulug'i
Turkning bosh bo'g'inimiz".*

so'zlari ham ilingan. Sahnada chiroyli burchak tashkil etilib, unda Amir Temur haqida yozilgan asarlar va uning tuzuklari joylash-tirilgan.

(Tadbir boshlanishidan oldin 5-daqiqalik Amir Temur haqidagi qisqa videofilm namoyish etiladi. Bu zaldagilarda ko'tarinkilik kayfiyatini hosil qiladi. Film tugagach sahnaga boshlovchilar kirib kelishadi).

1- boshlovchi (o'g'il bola)

*Ona vatanni sevmog
Ajdodlardan merosdir.
Uning ravnaqi uchun,
O'qib-ilm o'rganmog,
Bizlar uchun olmosdir.*

2- boshlovchi (qiz bola)

*Nomi dunyoga mashhur
Bobolarim bor mening.
Yasaviy, Bobur, Sino,
Navoiy, Amur Temur
Sharafim-shonim mening.*

1-boshlovchi (o'g'il bola): Assalomu – alaykum aziz mehmonlar, qadrlı ucto'zlar, hurmatli bolalar! Buyuk sarkarda, qudratli saltanat asoschisi, jahongir bobomiz, Amur Temur taval-ludiga 677 yil to'lishi munosabati bilan o'tkazilayotgan kechamizga xush kelibsizlar!

2-boshlovchi (qiz bola): Amur Temur – buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkada, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, el–yurtni sevgan va uni jahonga mashhur qilgan ulug' insondir. Sohibqiron bobomiz faqat bizninggina emas, balki jahon tarixining eng ulug', eng yorqin siymolaridan biridir.

1- boshlovchi (o'g'il bola)

*Siz-Amirsiz! Siz – Temursiz,
Jahongir sulton!*

2- boshlovchi (qiz bola)

*Iymondirsiz, vijdondirsiz,
Siz aziz inson.*

Musiqiy tanaffus (raqs)

1- boshlovchi (o'g'il bola)- Qarang, Ruhshona davramizga kimlar tashrif buyurmoqda.

2- boshlovchi (qiz bola) – Axir bu kishi Dono bobo va uning zukko nabiralari.

1- boshlovchi (o'g'il bola)- Ha, topdingiz bu kishi Dono bobo va uning zukko nabiralari bo'ladilar. Keling, ularni qarshi olaylik (Bolalar Dono bobo va uning zukko nabiralari qarshi olishadi).

Davraga Dono bobo va uning zukko nabiralari tashrif buyuradi.

Javoblar:

1. Kuch – adolatdadir.
2. Aqlli dushman, johilu nodon do'stdan yaxshidir.
3. Agar dushmanning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko'rsat.
4. Bilagi zo'r birni yiqitar, bilimi zo'r mingni.
5. Adovat emas, adolat engadi.
6. Til-qilichdan o'tkirdir.
7. Bir kalima shirin so'z qilichni qinga kiritar.
8. Er yigitni nomus o'ldirar

1-boshlovchi (o'g'il bola)

Dono bobo nabiralaringiz ham o'zingizdek bilimdon va dono bolalar ekan. Biz ular yordamida Amur Temur tuzuklari haqida ma'lumotga ega bo'ldik.

2-boshlovchi (qiz bola)

Shuningdek, Amir Temur bobomizning mardligi-yu, buyuk sarkarda, qonunshunos olim, takrorlanmas me'mor ekanligini bilib oldik.

1-boshlovchi (o'g'il bola)

*Temur bobo, nomingizni
Yod etajakmiz.
Olam aro ruhingizni
Shod etajakmiz.*

2-boshlovchi (qiz bola)

*Ko'kni o'pgan binolarda
Yashab qolasiz.
Ko'zga ko'chgan ziyolarda
Yashab qolasiz.*

Shuning bilan bugungi kechamizga yakun yasari ekanmiz, barchangizni bobolarimiz ruhi qo'llasin, degan tilakni bildirib qolamiz. O'quvchilar ijrosida "Amur Temur" qo'shig'i yangraydi va unga barcha jo'r bo'ladi.

Temurbek

Ho‘p bo‘ladi (Temur otasi oldiga kelib yozuvni beribdi).

Temurbekning otasi

Barakallo, o‘g‘lim deb yozuvni o‘qibdi. Unda: “Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo‘lmaydi. Jamshid-u Sulaymonlar kelib ketdi bu dunyoga. Navbat senga ham yetishi tayin”. Barakallo o‘g‘lim, oltinlarni ko‘p dono ishga safr qilibsiz. Endi bu hurmatga amal qilmog‘ingiz kerak.

Temurbek: ho‘p bo‘ladi otajon.

1-boshlovchi (o‘g‘il bola)

Hikoya muallifi o‘shal alloma shoir Kamol Ho‘jandiy ekan.


2-boshlovchi (qiz bola)

Hurmatli Dono bobo! hozir zukko nabiralaringizni “Nilufar guli” metodi orqali Amir Temur tuzuklarini bilish darajalarini sinab ko‘rsak.

Dono bobo –ziyrak va o‘zimdek dono nabiralarim bilimiga ishonaman. Sizlar bunga nima deysizlar.

Bolalar birgalikda: Biz tayyormiz.

Ular sahnaga chiqib, Amir Temur tuzuklaridan namunalarni “nilufar guli” metodidan foydalangan holda yoritadilar:



Dono bobo: Salom bolalar!

*Sizni ko‘rsam dilim yayrar,
Bag‘rim to‘lar, bo‘lurman shod.
Zukko bo‘ling, dono bo‘lih,
Aslo, also, ko‘rmang zavorl.*

*Temurbekdek bobongiz bor,
Oq yo‘l tilab turar sizga,
Yo‘lingizni yoritguvchi,
Go‘yo mash‘al bo‘lar sizga.*

Boshlovchilar:

*Xush kelibsiz Dono bobo,
Davramizga marhabo,
Siz va zukko bolalarga
Buyuk Temur haqida
Savol bermoqchi edik.
Bergan javobingizdan
Ma‘no termoqchi edik.*

Dono bobo

*Marhamat, bo‘lsa savol,
Javob bergaymiz bemalol.*

1- boshlovchi (o‘g‘il bola)

Necha yoshda bugun bobomiz Temur?

Dono bobo

677 dir, ming shukur.

2- boshlovchi (qiz bola)

Qay shaharda tug‘ilgan bobomiz Temur?

1-bola, ya‘ni bola (dono boboning zukko nabirasi)

Shahrisabz erur ul zot maskani, jahonlarga keng ochilgan eshigi.

1- boshlovchi (o'g'il bola)

Qay shaharda bo'lgan Bobomiz taxti?

2-bola, ya'ni bola (dono boboning zukko nabirasi)

*Samarqanddir asl uning poytaxti,
Turon zamin erur ul zot vatani.*

2- boshlovchi (qiz bola)

*Aytingchi ul zot qanday daho,
Yo ul vaqt bo'lganmi boshqacha baho?*

3-bola, ya'ni bola (Dono boboning ziyrak nabirasi)

*Yaxshi ko'rgan chovgon surishni,
Ot o'ynatib bo'lgan uchqur chavandoz,
Ilmu –fanni ko'p o'qigan, ko'p bilgan,
Yana- yana ko'p bilishga intilgan.*

1- boshlovchi (o'g'il bola)

*Nega ul zotning
nomlari sohibqiron?*

4-bola, ya'ni bola (Dono boboning ziyrak nabirasi)

*Ikki yulduz ko'kda duch kelgan zamon,
O'sha paytda dunyoga kelgan sohibqiron.
Aql ila jahonni mahf etganlar,
Adolatla sohibi zamon bo'lganlar.*

2- boshlovchi (qiz bola)

Qay diyor ul kishining vatani?

5-bola, ya'ni bola (Dono boboning ziyrak nabirasi)

*Shahri Kesh deya atalur u kishining vatani,
Chaman ichra chamanlarning chamani.*

1- boshlovchi (o'g'il bola)

Ul zotning qanday buyuk avlodlari bor?

6-bola, ya'ni bola

*Ulug'bek, Mirzo Bobur,
Akbarshoh, Shohjagongir.*

Boshlovchilar:

*Rahmat sizga Dono bobo
Berdingiz bizga yaxshi saboq.*

Dono bobo

*Bolalarim peshonangiz,
Hamisha porloq bo'lsin.
Ulug' Temur ishonchini
Har bir ishda oqlangiz.*

Hamma

*Istiqlol bizniki,
Istiqbol bizniki*

Musiqiy tanaffuz

Dono bobo:-bolalar endi siz meni tinglang, men sizlarga bir voqea aytib bermoqchiman. Voqea mana bunday ro'y beribdi (Hikoya Dono bobo nabiralari ishtirokida, kichik sahna ko'rinishi tarzida namoyish etiladi).

Amir Temurning bolaligi: 1- bola

Amir Temurning otasi: 2 - bola

Qalandar: - 3 –bola

Dono bobo - Bir kuni Tarag'ay bahodirxon ko'p qo'ylarni o'g'li Temurbekka berib, o'g'lim bu qo'ylarni bozorga borib sotib keleng, debdi. Temurbek qo'ylarni bozorga pullabdi.

Bir qalandar:

Kimki shu yozuvni qadriga yetib 1000 oltinga sotib olsa, u dunyoning oxiriga yetadi.....

Temurbek.

Menga bering. Mana 1000 oltin (deb xaltachadagi tillolarni beribdi).

Qalandar

Bu yozuvni otang oldida borib o'qigil.